


R. Suleymanov, O'zMU Arxeologiya kafedrasining professori  
SH.Shonazarov O'zMU Arxeologiya kafedrasining katta  
o'qituvchisi. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI  
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRULARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**"YAQIN, O'RTA SHARQ HAMDA MARKAZIY OSIYODA TABIIY-  
ILMIY VA IJTIMOIY-FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI"**

**moduli bo'yicha**  
**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

f.f.n., prof. D.A.Pulatova  
katta o‘qituvchi J.B.Sulaymonov

Taqrizchilar:

falsafa fanlari doktori, professor  
G..M.Ro‘zmatova  
f.f.n., dots. M.Qodirov

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston milliy universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2020 yil dekabrdagi № -sonli baènnomasi)

## MUNDARIJA:

<b>I.</b> <u>ISHCHI DASTUR</u> .....	<b>3</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI</b> .....	<b>14</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARIOSHIBKA! ZAKLADKA NE OPREDELENA.</b>	
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI</b> .....	<b>63</b>
<b>V. KO'CHMA MASHG'ULOT MATERIALLARI</b> .....	<b>102</b>
<b>VI. GLOSSARIY</b> .....	<b>103</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	<b>120</b>

## I. ISHCHI

### DASTUR Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va

kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulining maqsadi:** Yaqin, O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda tabiiy- ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji, Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi haqida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish.

#### **Modulning vazifalari:**

- Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ;
- IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishini;
- XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning faoliyati va ma’naviy merosini, ularning gumanistik xarakterini hamda jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o‘rnini ***bilishi*** kerak
- o‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish ***ko‘nikmalariga*** ega bo‘lishi lozim.
- Sharq falsafasi va madaniyatiga oid mavzularni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.
- Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi tendensiyalarini tahlil etish orqali hozirgi davrdagi amaliy ahamiyatini ifodalash ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

## **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-sorovlar, test so‘rovleri, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Yaqin, O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Sharq falsafasi tarixining asosiy davrlari va yo‘nalishlari”, “Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma’naviy merosining gumanistik xarakteri (VIII-XVIII asrlar)” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan .

## **Modulning oliy ta’limdagи o‘rnи**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida Yaqin, O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyoda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivoji, Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishiga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaiyl mashg‘ul	Ko‘chma mashg‘ul
1.	Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	6	2	4	
2.	Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad	8	4	4	

	Farg‘oniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning tabiiy ilmlar rivojiga qo‘shgan hissasi				
3	Ibn Miskavayxning falsafiy bilimlar rivojida tutgan o‘rni	6	4	2	
4	XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi	6	4	2	2
	<b>Jami:</b>	<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari**

1. Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va rivoji.
2. An’anaviy ilmlar taraqqiyoti.
3. Islomiy ilmlar rivoji.
4. Kalom ilmining vujudga kelishi.
5. Mu’tazila ta’limoti.
6. Kalomning Abul-Hasan al-Ash’ariy maktabi.
7. Moturidiya maktabi.

### **2-mavzu. Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning tabiiy ilmlar rivojiga qo‘shgan hissasi**

1. Qadimgi yunon falsafasining Iskandariya va Suriya falsafasiga ta’siri.
2. Ummaviy xalifalar davridagi ilmiy tarjimachilik.
3. Abbasiy xalifalar (Ma’mun) davridagi ma’rifatchilik.
4. Al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.
5. Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
6. Ahmad al-Farg‘oniyning ilmiy merosi.

### **3-mavzu. Ibn Miskavayxning falsafiy bilimlar rivojida tutgan o‘rni**

1. Abu Hayyon Tavhidiy dunyoqarashi.
2. Abu Ali Miskaveyh.
3. Yahyo ibn Adiyning axloqiy qarashlari.
4. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning falsafiy qarashlari.
5. Ibn Ravandiy va mu’tazila e’tiqodi. Illohiyotga doir bahslar. Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi.
6. Roziyning hayoti va ilmiy faoliyati.
7. Roziy asarlari.

8. Roziyning falsafiy qarashlari.

**4-mavzu. XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi**

1. Sa'duddin ibn Umar Taftazoniyning falsafiy qarashlari.
2. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari va mantig'i.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg'ulot.** Markaziy Osiyoda islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. (4 soat).

**2-amaliy mashg'ulot.** Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning tabiiy ilmlar rivojiga qo'shgan hissasi. (4 soat).

**3-amaliy mashg'ulot.** Ibn Miskavayxning falsafiy bilimlar rivojida tutgan o'rni. (2 soat).

**4-amaliy mashg'ulot.** XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi (2 soat).

**KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

**Ko'chma mashg'ulot.** XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi (4 soat).

**O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rileyotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi”— inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### “Assisment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy

ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assisment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili

bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular bиргалашиб, ко'риб чиқилайотган муаммо юхуд тушunchalarning умумијија жиҳатларини (yoki farqli) излаб топадilar, умумлаштирадilar va доирачалarning кесишган qismiga yozadilar.



## **1-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA ISLOM ILMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

1. Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va rivoji.
2. An’anaviy ilmlar taraqqiyoti.
3. Islomiy ilmlar rivoji.
4. Kalom ilmining vujudga kelishi.
5. Mu’tazila ta’limoti.
6. Kalomning Abul-Hasan al-Ash’ariy maktabi.
7. Moturidiya maktabi.

**Tayanch iboralar:** Islom, Muhammad (S.A.V.) Movarounnahr, Qur’oni Karim, hadislar, diniy dunyoqarash, kalom, fiqh, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Abu Iso at-Termiziy, kalom ilmining rivojida Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Mu’in an-Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Jamoliddin Ahmad al-Kosoniy, “qadimgi yoki an’anaviy ilmlar”, “arab ilmlari”, Kalom, mutakallim, aqliy dalil, naqliy dalil, qazo va qadar, xavorijiyalar, qadariylar, jabariylar, murjiylar, mu’taziliy-lar, Hasan al-Basriy (642-728), Vosil ibn Ato (vaf. 748), Abul- Hasan al-Ash’ariy, Abu Mansur al-Moturidiy, “Kitob at-Tavhid”, iroda erkinligi, qadim bilish, hadis bilish.

### *Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va rivoji*

Islom eng so‘nggi jahoniy din sifatida oldingi dinlarning ko‘p ijobjiy xislatlarini o‘zida ifodalagan. XX asr boshlariga qadar u Yaqin va O‘rta Sharq, jumladan, O‘zbekistonda dingina emas, balki hukmron dunyoqarash vazifasini o‘tab kelgan edi.

Islom VIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoga kirib keldi. U VIII-IX asrlar davomida Xuroson va Movarounnahrda zardushtiylik, moniylik, buddaviylik kabi dinlar bilan kurashda yerli xalq o‘rtasida turli tazyiqlar vositasida singdirilib borildi. Islom dini dunyoqarash sifatida keng tarqala borishi bilan birga, asta-sekin uning nazariy, falsafiy, huquqiy, adabiy kabi tomonlarini ishlab chiqishga e’tibor kuchaygan. IX-X asrlarga kelib, Qur’onga asoslangan maxsus islom ilmlari, ya’ni islomning turli tomonlama asosini mustahkamlash va uni talqin etishga qaratilgan maxsus diniy ilmlar shakllana boshlagan edi<sup>1</sup>.

Islomiy ilmlarning shakllanishi va rivojida Musulmon Sharqidagi qadimgi madaniy an’analarga boy bo‘lgan Xuroson va Movarounnahrdan

---

<sup>1</sup> Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). - T.: ToshdSHI nashriyoti. 2010. 47-b.

yetishib chiqqan olimlar, ko‘p hollarda zo‘r iste’dod va ijod namunalarini ko‘rsatib, musulmon olamida nom qozondilar. Masalan, IX-X asrlarda tez rivojlangan hadisshunoslikning mashhur bo‘lishida vatandoshlarimiz bo‘lgan Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termizi, Abu Iso at-Termizi, kalom ilmining rivojida Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Mu’in an-Nasafiy, fiqh – islom huquqshunosligida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Jaloliddin Ahmad al-Kosoniy kabilarning ulushi katta bo‘lgan edi (1-ilova).

IX-X asrlarda yashab ijod etgan, qadimgi ilmiy an’analar, jumladan, yunon, hind ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan hamda islomning ma’naviy ta’sirini bevosita guvohi bo‘lgan katta qomusiy olimlar asarlarida o‘z davrida ilmlar tizimi, ta’rifi o‘z ifodasini topishi bilan birga, ularni “qadimgi yoki an’anaviy ilmlar” hamda yangi – “arab ilmlari”, deb ikki yo‘nalishda bayon va tahlil etishga uringanlar. Bu dunyoviy ilmlar hamda islomiylar tizimidan iborat edi.

### *An’anaviy ilmlar taraqqiyoti*

An’anaviy ilmlar qadimgi yunon ilmlari asosida vujudga kelgan falsafiy ilmlarning turli yo‘nalishlarini – matematika, fizika, geografiya, kimyo kabilalar, shuningdek, falsafa, mantiq, ahloq kabilarni tashkil etgan. O‘sha davr olimlari “Ixvon as-safo” to‘garagining a’zolari, Abu Nasr Forobiy, Abdulloh Xorazmiy va boshqalar diniy, islomiy ilmlar, aniqrog‘i arab ilmlari sifatida islom falsafasi nazariyasi bo‘lmish kalom ilmi, hadisshunoslik, shariatga asoslangan fiqh – huquqshunoslik, Qur’onni tafsirlash kabi masalalarni, shuningdek, arab tili va grammatikasi, arablar tarixi (islomdan so‘nggi) kabilarni sanab o‘tganlar (2-ilova).

### *Islomiy ilmlar rivoji*

Islom ilmlari ichida, avvalambor, ilohiyot falsafasi – kalom, so‘ng hadisshunoslik, fiqh – huquqshunoslik, Qur’on tafsiri muhim o‘rin egallagan va sof diniy masalalardan tashqari turmushning barcha jihatlarini qamrab olgan.

Islom dini ta’limotida Muhammad (SAV) payg‘ambar hayoti, faoliyati hamda diniy, axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hadislar musulmonlarning muqaddas kitobi Qur’oni karimdan keyin turuvchi manba hisoblanadi.

VIII-XI asrlar hadis ilmining eng sermahsul davri bo‘lgan. Chunki, shu davrda sunnatning asosiy manbasi bo‘lmish “olti sahib to‘plami” vujudga kelgan. Shunisi e’tiborga sazovorki, ushbu hadislar to‘plamini yozgan muhaddislarning aksari Markaziy Osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870), Muslim ibn al-Hajjoj (819- 874), Abu Dovud as-Sijistoniy (817-880), Abu Iso at-Termizi (824-892), Ahmad an-Nasoiy (830-915), Abu Abdulloh Muhammad ibn Mojja (824-886) kabi hadis ilmi peshvolardir.

Ular ichida “hadis ilmida amir al-mo‘minin”, degan laqabga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida o‘rin tutadi. Uning “Al-jome’ as-sahih” to‘plami ishonchliligi jihatidan Qur’ondan keyingi o‘rinda turadi, xolos.

IX-X asrlarga kelib, qadimgi yunon ilmiy merosini islom Yaqin Sharqida o‘rganish va uning keng yoyilishi natijasida ularni turlicha talqin etishga intilish, masalan, mu’taziliylar ta’limoti va uning turli yo‘nalishlarining vujudga kelishi hamda ularni tanqid etish jarayonida paydo bo‘lgan fikrlarni tizimga solish zaruriyatga aylandi.

X-XI asrlarda kalom va yunon falsafasining natijalarini qorishtirishga intilish mayjud edi. IX-XII asrlarda islomning qonun- qoidalariga asoslangan tasavvuf yo‘nalishi shakllanib, Markaziy Osiyoda keng yoyildi. Bu yo‘nalish, diniy dunyoqarash asosida fan, madaniyat rivoji imkoniyatini kengaytirishi bilan, ularning yutuqlaridan foydalanish yo‘llarini boyitgan. Tasavvuf ziyolilar orasida tarqalgan.

Xulosa qilib aytganda, islom dini va falsafasi yangi axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi. Hadislarda bayon etilgan islomiy tarbiyaning asosi imon va solih amallardan iborat edi. Uning ustidan nazorat qilish shariat qonunlari va sunnatga topshirildi. Aslida payg‘ambar sunnati, deb atalgan narsa, barcha musulmonlar uchun ma’naviy ozuqa bo‘luvchi ideal axloqdir.

### ***Kalom ilmining vujudga kelishi***

Kalom ilmi o‘rtta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o‘rganish, islom aqidalariga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida maxsus bilimlar tizimi majmui sifatida vujudga kelgan edi.

Mutakallimlar (kalom ilmi vakillari) va faylasuflar orasidagi farq, ularning mavjud masalalarni tahlil qilishda tutgan mavqelarida edi. Mutakallimlar uni yechishda islom qonun-qoidalari hisoblangan Qur’on va hadisga tayanadigan bo‘lsalar, faylasuflar qadimgi an’anaviy uslubga rioya qilib, barcha masalalar yechimida aqlgagina tayanib, mantiqiy fikr yuritadilar. Kalom ilmi dastlab islomda mavjud bo‘lgan turli siyosiy- diniy firqalar (xavorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar, mu’taziliylar)ning o‘zaro munozaralari va boshqa din (mazdakiylik, nasroniylik) vakillari bilan bo‘lgan bahslashishlar jarayonida shakllandi. Bu tortishuvlarning natijasi Qur’on tafsiri va islom arboblarining u yoki bu sohada qilgan amallari talqiniga borib taqalar edi. Shular asosida kalom ilmining dastlabki mavzusi vujudga keldi: Allohning yagona vujudligi va uning sifatlari; qazo va qadar (inson taqdiri); o‘tgan payg‘ambarlarning, shu jumladan, Muhammad alayhissalomning Alloh elchisi ekanligini tan olish; qiyomat kuni va qayta tirilishga ishonish; musulmonlarning diniy hamda dunyoviy rahbarlarining (xalifa, imomlik) sifatlari kabi masalalar uning mazmunini tashkil etdi (1-ilova). Islom davrining dastlabki bosqichlarida jamiyatning diniy-huquqiy asoslarini turli din va xalqlarning milliy madaniyati tashkil qilar edi. O‘zga dinlarda bo‘lgani kabi islomning nazariy-huquqiy tomonlari keyingi asrlarda shakllana boshladi. Chunki bu din o‘rtta asrlarda o‘z atrofiga arab

bo‘lmagan – ajam xalqlarini ham birlashtirishga ulgurgan edi. Shu tufayli islomning diniy-huquqiy ta’limotini yaratishda bu dinni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim edi. IX asr o‘rtalariga kelib islomda yirik oqimlarni sunniylar, mu’taziliylar, murjiylar, shialar va xavorijiyalar tashkil qilar edi.

## *Mu'tazila ta'limoti*

Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri hisoblangan mu'taziliya (arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar)ning kelib chiqishi nazariy jihatdan muhim voqeа bo'ldi. Bu oqimning vakili Hasan al-Basriy (642-728) mu'taziliy oqiminining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Hasan al-Basriy ta'limoti rivojida uning izdoshlari Vosil ibn Ato (vaf. 748) va Amir ibn Ubayd (vaf. 761) kabilarning o'rni katta. Ular islomga qadimgi dunyo falsafasi va mantig'inинг usul va tushunchalarini tatbiq qilib, islom asoslarini aqliy tarzda talqin etishga harakat qilishgan.

Mu'tazila ta'limoti Abbosiylardan Xorun al-Rashid (786-809), Ma'mun (813-833), Al-Vosiq (842-847) xalifalik qilgan davrda rasmiy e'tiqod sifatida tanildi. Al-Mutavakkil hukmronlik qilgan davrda (847-861) esa, islomga zid bo'lgan oqim sifatida qattiq ta'qib ostiga olindi.

## *Kalomning Abul-Hasan al-Ash'ariy maktabi*

Siyosiy va diniy bahslar avj olgan murakkab sharoitda Bag'dodda Abul Hasan al-Ash'ariy kalomning yangi maktabi bo'lgan ash'ariylik oqimining asoschisi sifatida chiqib, ilk islomiy aqidalar bilan kalomni murosasozlik yo'li bilan saqlab qolmoqchi bo'ldi. Ilgarigi ilohiyotchilardan farq qilib, Ash'ariy va uning izdoshlari ilk islomni mantiqiy va falsafiy dalillar yordamida saqlab qolishga urindilar.

Ash'ariy aqliy usulni qo'llab, taqdirga ishonish va iroda erkinligi haqidagi ta'limotni ichki qarama-qarshiligin hal qilmoqchi bo'ldi. Uning tomonidan "kasb" (bajarish yoki o'zlashtirib olish) nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq qazo (qaror, hukm) xudoning azaliy va umumiy irodasi bo'lib, qadar (hokimiyat, iroda) esa, xudoning hukmini dunyo hodisalariga nisbatan qisman qo'llanilishi edi. Inson esa, ushbu xususiy qarorni faqat xuddi o'zinikidek, "kasb etishi" yoki "o'zlashtirishi" mumkin edi. Bu nazariyaga ko'ra, faoliyat xudo tomonidan yaratiladi, ammo iroda erkinligiga ega bo'lgan inson tomonidan bajariladi va qo'lga kiritiladi. Garchi ash'ariylik oqimi o'zini oshkora mu'taziliylardan ajratgan bo'lsa ham, ammo ular uchun umumiy bo'lgan iroda erkinligi va aqliy yo'nalishda borishda davom etgan.

Mu'tazila maktabi fikriga qarshi o'laroq, inson omili tanlash va amaliyotda o'ringa ega emas va u hech qanday axloqiy va diniy samara hosil qila olmaydi. Insonning axloqiy ixtiyor va mas'uliyatiga katta e'tibor bergan mu'tazila bu to'g'risida uni ochiq qo'lli "o'z amallarining xoliqu", deb ta'riflaydilar. Ash'ariy fikricha, bunday xudoga shirk keltirish bilan barobar bo'lgan bayonot, xudovandning yagonaligini inkor etish

demakdir. Xudo tanho xalloq va bepoyon Borliqning homiysidir. Mu’tazila oqimining gapi esa, sanaviylar (dualist) fikri tarzidagi ikki xoliqni qabul qilish natijasini beradi<sup>2</sup>.

Ash’ariy nazaricha, inson amallarini ilohiy “hukm va qazo”ga taalluqli, deb nisbat berish zaruratan xudovand adolatini inkor etish ma’nosini bildirmas edi. Adolatsizlik yo zulm faqat xojaning amrini mahkum etish yoki uning ixtiyoridagi mulkni tasarruf etishdan iborat emas, har ikki holatda ham xudovandni zulm qilishda ayblab bo‘lmaydi, negaki, molikul mulk (xudo) hech shubhasiz, butun borliqning qonunguzori bo‘lib, hech bir shaxs qarshisida biror-bir majburiyat olmagan<sup>3</sup>.

### ***Moturidiya maktabi***

Kalomning asosiy maktablari bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda Abu Mansur al-Moturidiy (870-944) asos solgan Moturidiya maktabi ham mavjud edi.

Moturidiy ta’limoti mu’taziliylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki aql bilan naqlni qo’shib foydalanishni zarur, deb bilgan. Moturidiy islam ilohiyotida qazo va qadar, ya’ni inson taqdiri borasida ham o‘zining mulohazalarini bayon etgan.

U insonda tanlash erkinligi, ya’ni har kimning ixtiyori o‘zida ekanligini ta’kidlagan. Xudoning yagonaligini isbotlashda Moturidiy bilimning uch xil yo‘liga tayangan. U naqlda ko‘rsatilganlardan boshlab (som), aql ko‘rgazmasiga (dalolat al-aql) yetib kelgan va yaratilgan narsalar tufayli hosil bo‘ladigan histuyg‘u (dalolat al-istidlol bi-l-xalq) bilan o‘z dalillarini tamomlagan. Moturidiy va uning asarlari bilangina Movarounnahr kalom tarixiga birinchi marta qadam qo‘ygan.

Moturidiyning bilish nazariyasi o‘ziga xos va jozibali edi. U dunyonи bilishni ikki turga: qadim va hadis bilishga ajratgan. Qadim bilishda Alloho tanish, hadis bilishda esa, mavjudotlarni tushunish ko‘zda tutilgan. Kasbiy bilish ham tarixiy va istidloliy bilish sifatida ikkiga ajratilgan. Xabar yo‘li bilan hosil qilingan bilishga tarixiy, aqlga tayangan bilishga esa, istidloliy nomi berilgan.

Moturidiy ko‘plab shogirdlar yetishtirdiki, ular orasida islam olamiga mashhur bo‘lgan: Abul Hasan ar-Rustug‘faniy (vaf. 961), Ishoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdul Karim al-Pazzaviy (vaf. 999), Abu Ahmad al- Iyodiy, Abul Qosim Hakim as-Samarqandiy (vaf. 953) kabi olimlar bor edi. Ushbu shogirdlari o‘z ustozlarining ta’limotini davom ettirganligi tufayli Hanafiya mazhabi ichida moturidiya maktabi keng yoyildi.

### **Nazorat savollari:**

#### **1. Islom qachon Markaziy Osiyoga kirib keldi?**

6-sahifa (arab tilida)<sup>2</sup> Qarang: البانة عن اصول الديانة، ابو الحسن، حيدرآباد، ١٩٤٨ //Ash’ariy, Abul Hasan. Din usullariga tafsir. Xaydarobod, 1948.

<sup>3</sup> R. J. Mckarthy, Theology of al-Ash’ari. (Makkarti. Ash’ariy ilohiyoti). –Beirut, 1953, –P.70.

2. An'anaviy ilmlar taraqqiyoti bo'yicha idrok xaritani chizing.
3. Islomiy ilmlar rivoji qanday kechdi?
4. Kalom ilmining vujudga kelishini tushuntirib bering.
5. Mu'tazila ta'limoti nimalardan iborat?
6. Kalomning Abul-Hasan al-Ash'ariy maktabi bo'yicha idrok xaritani chizing.
7. Moturidiya maktabi bo'yicha idrok xarita chizing.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Imom Moturidiy tavalludining 910 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. 2000 yil 16 noyabr. – T.: O'zbekiston, 2001. 9- jild.
2. Ash'ariy, Abul Hasan. Din usullariga tafsir. Xaydarobod, 1948. 6 sahifa (arab tilida)
3. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
4. Mikulinskiy S. R. Ocherki razvitiya istoriko-nauchnoy misli. –M.: Nauka, 1988.
5. Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahone islom (Islom dunyosida falsafa tarixi jarayoni). Longman, 1983. Fors tilidan tarjima Nasrullo Pur Javodiy tahriri ostida. Tehron. Tehron universiteti nashri. 1372 hijriy yil (1997).
6. Rudolf Ulrix. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. (Al-Moturidiy va Samarcand sunniy ilohiyoti). –Almati: Fond XXI vek, 1999.
7. Uvatov U. Imom al-Buxoriy. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Mas'ul muxarrir: M. M. Xayrullayev. To'ldirilgan katta nashr. –T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999
8. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O'zbekiston, 1995.
9. Filosofskoye naslediye narodov Sredney Azii i borba idey. –T.: "Fan", 1988.
10. R. J. Mckarthy, Theology of al-Ash'ari. (Makkarti. Ash'ariy ilohiyoti). –Beirut, 1953, –P.70.
11. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
12. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.:O'zbekiston, 1996.
13. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). - T.: ToshdSHI nashriyoti. 2010.
14. Ma'naviyat yulduzlari. (Markaziy osiyolik mashhur siymolar,

- allomalar, adiblar). Mas’ul muharrir Xayrullayev M. M. To‘ldirilgan katta nashr. – T., A. Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999.
15. Qodirov M. Islomiy ma’rifat, madaniyat va ma’naviy qadriyatlar falsafasi. “Islom, tarix va ma’naviyat”. – T., A. Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2000.
  16. Islom. ensiklopediya (A-H) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2004.
  17. Islam (ensiklopedicheskiy slovar). – M.: Nauka, Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturi. 1991.

## **2- MAVZU: MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY, AHMAD FARG‘ONIY, ABU ABDULLOH AL-XORAZMIYNING TABIIY IMLYLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI**

### **Reja:**

1. Qadimgi yunon falsafasining Iskandariya va Suriya falsafasiga ta’siri.
2. Ummaviy xalifalar davridagi ilmiy tarjimachilik.
3. Abbosiy xalifalar (Ma’mun) davridagi ma’rifatchilik.
4. Al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.
5. Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
6. Ahmad al-Farg‘oniyning ilmiy merosi.

**Tayanch iboralar:** Islom falsafasi, Xuroson, Andaluziya, Iskandariya, Umar Os, Eron, Rum, Antokiya, Harron, Edissa, Nisaybin, Rossilayn, Kliment Sentimiy Florens Tertullian, Yaqub Rahoviy, Jandishopur, Xusrav I Anusheravon, Muhammad al-Xorazmiy, “Algebra”, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-muqobala”, “algoritm”, “Zij”i (yulduzlar katalogi), “Zij al- mumtahan” (“Sinalgan zij”), “Hind hisobi haqida kitob”, “Diksit Algorizmi”, “Aljabr”, X. Zuter, K. A. Nallino, I. Y. Krachkovskiy, usturlob, “Kitob surat ul-arz”, Ahmad al-Farg‘oniy, Damashq rasadxonasi, nilometr, Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi”, “Alfraganus”, Abu Hayyon Tavhidiy, “Al-imto’ val mu’onisata”, “Ming

bir kecha”, Miskaveyh, “Tajorib ul-umam”, axloq, “Jovidone xirad”, “Tahzib ul-axloq”, dorishunos, riyoziyot, mantiq, tibbiyot, moba’dul tabia (metafizika), Yahyo ibn Adiy, do’stlik, yaqinlik, mehribonlik, sabr-toqat va chidam, hamda o’rtamiyonalikka intilish, Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al- Kindiy, Kufa, Suqrot, Ptolemy, Pifagor, “Tabaqotul atbo”, shariat, falsafa, ko‘prik, mu’tazila, “Besh mohiyatlar haqidagi kitob”, ruh, aql, javhar, ilohiy, modda, shakl, makon, harakat, zamon, Ibn Ravandiy, Ahmad ibn Tayyib Seraxsiy, diniy shubha, “Raddiyalar”, “Kitob al-intisor”, “Kitob az-zumrrud”, risolat, tanqid, Qur’on, Ibn al-Murtazo, dualistlar, rofiziylar, vahiy, aql, xayr, sharr, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziy, tabiatshunoslik, kimyo, tabobat, Rey, Bag‘dod, “Tabobatga doir barcha narsalarni qamrab oluvchi kitob”, “Sirrul-asror”, kategoriyalar, burhon, ilohiy falsafa, mutlaq, juz’iy, zamon, makon, jon, ruh, jism, xoliq, birlamchi modda, azaliy, manba, javhar, aql, surat, shakl.

### *Qadimgi yunon falsafasining Iskandariya va Suriya falsafasiga ta’siri*

Islom falsafasi suriyaliklar, arablar, eronlilar, turkiy xalqlar, barbarlar va boshqa millat vakillari ittifoq etgan murakkab fikriy jarayon hosilasidir (1-ilova). Yaqin Sharq, jumladan Iskandariya, 641 yilda Umar Os tomonidan fath etiladi. Bu mintaqaning arablar qo‘liga o‘tishi asrlar davomida davom etib kelgan Eron va Rum istilolariga barham bergen edi.

Iskandariya VII asrda yunon falsafasi va ilohiyotini tadqiq qiladigan muhim markazga aylangan edi. Yunon tilini o‘rganish Suriya va Iroqda VI asrda, Antokiya, Harron, Edissiya (arabchasi Urfa yoki Arroha) shaharlarida, Suriya shimolidagi Kinnasarin, yuqori Iroqdagi Nisaybin va Rassilaynda sal keyinroq boshlangan edi. Yunon tilini o‘rganish Iskandariyadan o‘tgan yunon ilohiyotini o‘rganishdan boshlangan edi. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230) aytganlarining moniylikka qarshi qaratilgan joylari suriyoniyligiga tarjima qilingan edi. Yaqub Rahoviyning (vaf. 708) ilohiyot va falsafaga doir asrlarning yoyilishi erkin fikr mavjudligidan guvohlik beradi.

VII asrda Harron va Jandishopurda (Eron janubi) yunon ilmlarini o‘rgangan ikki markaz mavjud edi. Jandishopur o‘quv yurti 555 – yilda Husrav I Anisheravon tomonidan ta’sis etilgan edi.

### *Ummaviy xalifalar davridagi ilmiy tarjimachilik*

Ummaviy xalifalari (661 – 749) deyarli bir asar davomida hokimiyatni mustahkamlash bilan band bo‘ldilar. Abdumalik ibn Marvon (685 – 705) davrida boshqaruv sohasida islohotlar o‘tkazib, arab tili yunon tillari o‘rniga idora ishlarida rasmiy til sifatida joriy etilgan.

Amaliy mulohazalar eng qadimgi ilmiy va ayniqsa tabobat sohasidagi matnlarni arab tiliga tarjima qilish zaruriyatini keltirib chiqargan edi.

Eng qadimgi arab tilidagi manba bo‘lgan Ibn Nadimning (vaf. 925) “Al- Fehrist” (“Ro‘yxat”) kitobidagi ma’lumotlarga ko‘ra, bиринчи мarta kimyo, astronomiya va tabobatga doir asarlarni arab tiliga tarjima qilish Ummaviy amiri Xolid ibn Yazidga (vaf.704) taalluqli edi.

Ilgari zardushtiy dinida bo‘lib keyin, islomga kirgan Abdullo ibn Muqaffaning (757y qatl etl.) Pahlaviy tilidan arab tiliga hind olimi Bidpoy Hakimning “Kalila va Dimna”asarini tarjima qilganligi katta ahamiyatga ega bo‘lgan edi.

Uning qadimgi fors tilidan arab tiliga qilgan tarjimalaridan “Xudoynoma” (“Qadimgi fors davlatchiligi tarixi”), “Oyinnoma” (“Yo‘l- yo‘riqlar”, urf-odatlari), “Mazda kitobi”, “Anushervonning hayot yo‘li” va boshqa adabiy-axloqiy risolalar islom mintaqasi madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Arastuning “Kategoriyalar”, “Birinchi analitika”, Porfiriyning “Isog‘uchi” (“Mantiqqa kirish”) asarlarini Abbosiy xalifa Mansur (754- 770) uchun arab tiliga qilingan tarjimasi ham ibn Muqaffaga taaluqli edi. (Qiftiy Tarixi hukamo 220-sahifa): xalifa Mansur tarjima ishlariga jalb qilgan olimlar orasida Navbaxtiy xonardonining a’zolari, hamda eng mashhur olim Albitriq ham bor edi. Mazkur xalifa hukmronligi davrida Arastuning bir necha risolalari, Ptolemeyning “Almagest”, Yevklidning “Geometriya usuli” va boshqa bir necha asarlar yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan edi.

### ***Abbosiy xalifalar (Ma’mun) davridagi ma’rifatchilik***

Haqiqiy tarijimachilik faoliyatini Mansurning nevarasi Ma’mun (813-833) yo‘lga qo‘ygan edi. Ma’mun otasi Horun ar-Rashid saroyining tabibi Yuhanno ibn Mosulni 830 yili “Baytul hikma” raisligiga saylagan edi. U Aflatunning “Timey” asarini arab tiliga tarjima qilgan edi<sup>4</sup>. Hajjoj ibn Matar, Yahyo ibn Albitriq, Hunayn ibn Ishoq (899-873) larning tarjimachilik faoliyati katta samara keltirdi.

Salamo ismli olim va tarjimon “Sohib Baytul hikma” laqabiga ega edi. (Ibn Nadim. Al-fehryst, 353-sahifa). Hunayn muharrirligi ostida uning do’stlari, o‘g‘li Ishoq, jiyani Hubash va shogirdi Iso ibn Yahyo tomonidan Arastuning deyarli barcha asarlari, Aflatunning bir qism kitoblari tarjima etilgan edi. Hozirgacha arab tilida mavjud bo‘lgan Jolinus (Galen) va Buqrot (Gippokrat) kitoblari Hunayn tarjimasida yetib kelgan.

Yunon falsafasining islom tafakkuriga to‘la ta’siri tarjimalar natijasida IX asrda namoyon bo‘lgan edi (2-ilova).

### ***Al-Xorazmiy hayoti va faoliyati***

(783-850)

Arab tili Markaziy Osiyoni islom madaniyati, arab dunyosi, arab tilida yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar, yunon tilidan qilingan ilmiy

1958, – B.358. <sup>4</sup> //Ibn Nadim. “Kitobe Al-Fehrist” (“Ro‘yxat kitobi”). – Qohira: Bito.

tarjimalardan bahramand bo‘lishga olib kelgan bo‘lsa, fors tili qadimgi va o‘rta asrdagi Eron madaniyati, she’riyatini chuqur o‘rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi<sup>5</sup>.

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar shu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug‘ildi. Muhammad al-Xorazmiy shu fanlar olimlarining peshqadami va yo‘lboshchisi edi<sup>6</sup>.

Xorazmiy dunyo faniga g‘oyat katta hissa qo‘shti. U algebra fanining asoschisi bo‘ldi. “Algebra” so‘zining o‘zi esa, uning “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-muqobala” nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsion hisoblash tizimi va shu tizimdagи amallarning Ovro‘pada tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning “al-Xorazmiy” nomi esa, “algoritm” shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi. Uning jo‘g‘rofiyaga doir asari esa, arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning “Zij”i (yulduzlar katalogi) Ovro‘poda ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan, “o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri” (J. Sarton) bo‘lgan bunday siymoning hayoti haqida ma’lumotlar deyarli saqlanmagan<sup>7</sup>.

Xorazmiy davrida “Bayt ul-hikma”da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn Bitriq, Hunayn ibn Ishoq va Kusto ibn Luqo al-Ba’albakiylar bor edi. Bag‘dodga kelgan Markaziy Osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniy (vaf. 865)ning nomini eslash lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonanining asoschisi va rahbari bo‘ldi. Yahyo 831 yili vafot etganidan so‘ng, Xorazmiy bu rasadxonani boshqaradi va u yerdagи kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma’lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog‘idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi. U ham o‘z “Zij”ini tuzadi. Xolid yer meridianining uzunligini o‘lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850 yilda Bag‘dodda vafot etdi.

<sup>5</sup> Qarang: M.M.Xayrullayev. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish//Ma’naviyat yulduzlari. –B.36.

<sup>6</sup> Qarang: A. Ahmedov. Muso al-Xorazmiy. //Ma’naviyat yulduzlari. –B.36.

<sup>7</sup> A. Ahmedov. Muso al-Xorazmiy. //Ma’naviyat yulduzlari. –B.37.

## *Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari*

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular “Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” algebraik asar, “Hind hisobi haqida kitob” yoki “Qo’shish va ayrish haqida kitob” – arifmetik asar, “Kitob surat ul-arz” – geografiyaga oid asar, “Zij”, “Usturlob bilan ishslash haqida kitob”, “Usturlab yordamida azimutni aniqlash haqida”, “Kitob arruhoma”, ”Kitob at-ta’rix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”. Bu asarlarning to’rttasi arab tilida, bittasi Farg‘oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas<sup>8</sup>.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma’lum, ammo bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko‘chirilgan yagona qo‘lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola “Diksit Algorizmi”, ya’ni “Al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlanadi.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o’nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini bat afsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o’tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya’ni razryadlarini e’tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u. Risolaning boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o’z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligini qayd qiladi. U shunday deydi: “... Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o’z ichiga oluvchi “Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni ta’lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomा tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o’lchash, kanallar o’tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o’xshash turlichcha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”<sup>9</sup>.

Risolaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan lotincha qo‘lyozmasining matnini 1857 yili B.Bonkompani nashr etgan. Mazkur qo‘lyozmaning fotoreproduksiyasini tarixchi A.P.Yushkevich ham nashr etgan<sup>10</sup>. Undan tashqari A.P.Yushkevich o’z risolasida Xorazmiy risolasiga alohida paragraf bag‘ishlagan<sup>11</sup>. B. Bonkompanining nashri asosida Y.X.Kopelevich va B.A.Rozenfeldlar risolaning ruscha tarjimasini nashr etishgan<sup>12</sup>. Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983 yili bu asarning qayta nashri va o’zbekcha tarjimasi chop etildi.

<sup>8</sup> Qarang: Ahmedov A. Muso al-Xorazmiy. //Ma’naviyat yulduzlari. –B.39.

<sup>9</sup> Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. –T.: Fan, 1983, –B.78.

<sup>10</sup> Qarang: A. P. Yushkevich. Arifmeticheskiy traktat Muxammeda ibn Musa al-Xorezmi. Trudi instituta istorii yestestvoznaniya i texniki AN SSSR, vip. 1. –M., 1964.

<sup>11</sup> Qarang: A. P. Yushkevich. Istoriya matematiki v sredneye veka. –M., 1961.

<sup>12</sup> Qarang: Muxammad al-Xorezmi. Matematicheskiye traktati. –T., 1964.

Xorazmiyning algebraik risolasining to‘liq nomi – “Al-kitob al- muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala”. Risolaning nomidagi “Al- jabr” va “al-muqobala” so‘zлari “to‘ldirish” va “ro‘para qo‘yish” – o‘rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. “Aljabr” so‘zi lotincha transkripsiyada “algebra” bo‘lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo‘lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo‘lim – savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo‘llanib o‘lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan “Vasiyatlar kitobi” deb atagan. Xorazmiy o‘z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmunni butunlay so‘z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi (1-ilova).

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Olim bu asarni 830 yilda yozgan.

Xorazmiyning “Zij”i 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, “to‘fon”, “iskandar”, “safar” va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko‘chirish qoidalari keltiri- ladi. 6-bobda aylana – 12 burjga, burj – 30 darajaga, daraja – 60 daqiqaga, daqqa – 60 soniyaga va hokazo maydo bo‘laklarga bo‘linishi bayon etiladi. 7- 22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag‘ishlangan. Bu boblarda Xorazmiy qadimgi va ilk o‘rta asr hind astronomik ma’lumotlaridan, eron va yunon ma’lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, sayyoralar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag‘ishlangan, unda Xorazmiy “tekis” va “akslangan sinus” tushunchalarini kiritadi va bu funksiyalar jadvallarini keltiradi. 25-27 boblar matematik geografiyaga bag‘ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarning o‘zgarishi Quyoshning yillik, kecha- kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

Xorazmiy o‘z “Zij”ida boshlang‘ich meridian sifatida, hind an’anasiga ko‘ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o‘tgan meridianni tan- lagan. Ovro‘poda XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g‘oyasining tarafdarları bo‘lganlar. Arin g‘oyasiga ko‘ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410 yili o‘zining “Yer tasviri” nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487 yili chop etilgan bir nushasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o‘ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko‘ra, Arin g‘oyasi unda yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametal qarama-qarshi tarafida Aringa o‘xshash joy bo‘lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmiyning “Zij”i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo‘ldi.

Akademik V.V.Bartold bu asar 836-847 yillar orasida yozilganligini aniqlagan<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> Qarang: V. V. Bartold. Vvedeniye k izdaniyu Xudud al-alam. Sochineniye: T. 8. –M., 1973, –S. 504-545.

Asar 1037 yili ko‘chirilgan yagona arab nusxasida bizgacha yetib kelgan bo‘lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan.

Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kapar orollaridan boshlab hisoblaydi. U ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64 shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar, 4-iqlimda 146 shahar, 5-iqlimda 79 shahar, 6- iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimdan shimalda 40 shaharning koordinatlarini keltiradi.

Xorazmiyning “Kitob surat ul-arz” asari ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Lekin asar shu paytgacha to‘la ravishda birorta hozirgi zamon tiliga tarjima qilinmagan. 1983 yili olimning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o‘zbekcha tarjimasi Xorazmiyning “Tanlangan asarlar”i tarkibida chop etildi<sup>14</sup>.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli G‘arb va Sharq tillariga tarjima qilingan. U o‘z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o‘z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug‘i, o‘z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston va boshqalar) mukofot va medallar ta’sis etilgan, ko‘cha, muassasalar uning nomi bilan yuritilmoqda.

### *Ahmad al-Farg‘oniyning ilmiy merosi (797-865)*

O‘rta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Farg‘oniy salmoqli o‘rin egallaydi.

Uning to‘liq ismi Abul Abbas Ahmad Ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. U Farg‘ona vodiysining Qubo (Quva) tumanida tug‘ilgan. Abu Rayhon Beruniyning bir xabariga ko‘ra, Bag‘dod rasadxonasingh ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa, Xolid ibn Abdumalik va al-Farg‘oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar. U shuningdek, al-Farg‘oniyning Suriya shimalida, Sinjor sahosida 832-833 yillarda Tadmur va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchashda ishtirok etganini ham aytgan.

Al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi eng so‘nggi va eng aniq xabar 861 yil bilan bog‘lanadi. U shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya’ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta’mirlagan.

Al-Farg‘oniyning asosiy astronomik asari “Samoviy harakatlar va umumiyl ilmi nujum kitobi” (“Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum”) XII asrda Ovro‘poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro‘po tillariga ham tarjima qilingandan so‘ng, uning

<sup>14</sup> Qarang: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. –T.: Fan, 1983.

lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G‘arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning ushbu kitobi shu asrlar davomida Ovro‘po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘tadi. Al- Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi bиринчи марта 1492 yilda nashr etilgan bo‘lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669 yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakub Golius al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng, al-Farg‘oniy va uning asarining Ovro‘podagi shuhrati yanada ortdi. Ovro‘po Uyg‘onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma’ruzalarni al-Farg‘oniy kitoblaridan o‘qigan. Al- Farg‘oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan.

Ovro‘po olimlaridan Dalamber, Brokelman, I.Y.Krachkovskiy, A.P.Yushkevich, X.Zuter va B.A.Rozenfeldlar al-Farg‘oniyning ijodini yuqori baholaganlar<sup>15</sup>.

Hozirgi kunda al-Farg‘oniyning sakkiz asari ma’lum bo‘lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar odatda uni “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomi bilan ham atashadi – qo‘lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. “Usturlob yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob” – birgina qo‘lyozmasi Rampurda (Hindiston), “Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola” – qo‘lyozmasi Qohirada, “Yetti iqlimni hisoblash haqida” – qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada, “Quyosh soatini yasash haqida kitob” – qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. “Al-Xorazmiy “Zij”ining nazariy qarashlarini asoslash” asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo‘lyozmasi topilmagan.

Farg‘oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G‘arbda mashhurdir. Hozirgi kunda ko‘chalar, o‘quv yurtlariga uning nomi berilgan. 1998 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Farg‘oniyning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.

### Nazorat savollari:

1. Islom falsafasiga qaysi xalqlar dunyoqarashlari o‘z ta’sirini ko‘rsatdi ?
2. Qadimgi yunon falsafasi qanday qilib, arab-musulmon dunyosiga kirib keldi?
3. Bu mavzudagi eng qadimgi arab tilidagi manbani bilasizmi?
4. Yunon falsafasini o‘rganish markazlari bo‘lgan shaharlar qaysilar edi?

---

<sup>15</sup> Qarang: Ahmedov A. Ahmad al-Farg‘oniy//Ma’naviyat yulduzlari, –B.47.

5. “Kalila va Dimna” asarining muallifi kim edi?
6. “Almagest” va “Geometriya usuli” asarlari-chi?
7. Abbosiylar davrida ilm-fanning gullab-yashnashiga nimalar sabab bo‘lgan edi?
8. Yuhanno ibn Mosul qaysi asarni tarjima qilgan edi?
9. Vatandoshimiz o‘rta asr mutafakkiri Al-Xorazmiy jahon ilm- fani ravnaqiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
10. Al-Xorazmiyning shoh asari nima deb nomlanadi?
11. Usturlob nima?
12. Xorazmiyning “Zij” asarida nechta jadval mavjud?
13. Xorazmiyning geografiyaga oid asarini bilasizmi?
14. Al-Farg‘oniy merosini o‘rganishdagi eng dastlabki manba nima?
15. Al-Farg‘oniyning yana qanday asarlarini bilasiz?
16. Al-Xorazmiy va al-Farg‘oniylarni o‘rganish Mustaqil O‘zbekiston istiqboli uchun nimalarni kafolatlaydi?
17. Islom dunyosiga falsafiy madaniyatning yoyilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
18. Abu Hayyon Tavhidiyning eng muhim asari nima to‘g‘risida edi?
19. Tavhidiy nima uchun zamondosh faylasuflarni tanqid ostiga oldi?
20. Miskaveyh qaysi sohalarda ijod qilgan?
21. Miskaveyh aqliy ilmlarni qay tartibda joylashtiradi?
22. Yahyo ibn Adiyning “Fazilatlar va razolatlar” tizimiga yana qanday kategoriyalarni kiritish mumkin?
23. “Tahzib ul-axloq” asarining muallifi kim?
24. Yuqoridaq mutafakkirlardan qay birining g‘oyalari Mustaqil O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi, deb o‘ylaysiz?
25. Roziyning arab-musulmon falsafasida tutgan o‘rni qanday?
26. Roziy qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan?
27. Roziyning shoh asari nima deb nomlangan?
28. Roziyning borliq falsafasida olamning asosida nima yotadi?
29. Uning borliq to‘g‘risidagi qarashlari qaysi g‘arb faylasufi ta’limotiga yaqinroq?
30. Roziyning axloqqa oid qarashlari uning qaysi asarida o‘z ifodasini topgan?
31. Roziyning falsafiy dunyoqarashiga qaysi faylasuflarning ta’siri katta bo‘lgan?
32. Nima uchun Roziy Abu Hotam Roziy va Nosir Hisravlar tomonidan kofirlikda ayblangan?

## Adabiyotlar

1. Abu Rayxan Beruni. Izbranniye proizvedeniY. T.1. Tashkent. 1957.
2. Al-Hayyot, Abul Husayn Abdurahim ibn Muhammad. Kitob al- intisor va-r-radd ala Ibn ar-Ravandiy al-mulhid. Beyrut. 1957 y 22-38 betlar (arab tilida).
3. Al Farabi. O razume i nauke. Alma-Ata. Iz-vo “Nauka”, 1975.
4. Ahmedov A. Ahmad al-Farg‘oniy//Ma’naviyat yulduzlari, –B.47.
5. Ahmedov A. Muso al-Xorazmiy. //Ma’naviyat yulduzlari. –B.36.
6. Bartold V. V. Vvedeniye k izdaniyu Xudud al-alam. Sochineniye: T. 8. –M., 1973.
7. Grigoryan S.M. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
8. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
9. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
10. Ibn Nadim Al-Fexrist. 216-217.(arab tilida).
11. Izbranniye proizvedeniya misliteley stran Blijnego i srednego Vostoka.M,Sotsekgiz,1961.
12. Izbranniye proizvedeniya misliteley stran Blijnego i Srednogo Vostoka. M., izd-vo sotsekgiz, 1961.
13. Islam ensiklopedicheskiy slovar. M., “Nauka”, 1991.
14. Islam. ensiklopedicheskiy slovar. M. “Nauka”. 1991.
15. Islom, tarix va ma’naviyat. Tashkent. Abdulla Qodiriy nomi-dagi xalq merosi nashriyoti. 2000.
16. Karimov I.A. Ahmad al-Farg‘oniy haykalining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutq. Asarlar. 7-jild. – T., O‘zbekiston. 1999.
17. Karimov U.I. Neizvestnoye sochineniye ar-Razi (“Kniga tay-ni tayn”).Tashkent. 1957.
18. Krimskiy A. Iстория Persii, yevo literaturi i derveshskoy teosofii. M.,1912 tom II.
19. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
20. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
21. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
22. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
23. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane.T., “Fan”, 1976.
24. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosof-skoy misli v Uzbekistane. T., “Fan”, 1976.
25. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi

- nashriyoti. T., 2001.
26. Mikulinskiy S. R. Ocherki razvitiya istoriko-nauchnoy misli. – M.: Nauka, 1988.
  27. Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahone islom (Islom dun-yosida falsafa tarixi jarayoni). Longman, 1983. Fors tiliga tarjima Nasrullo Pur Javodiy tahriri ostida. Tehron. Tehron universiteti nashri. 1372 hijriy yil (1997).
  28. Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahone islom (Islom dunyosida falsafa tarixi jarayoni). Longman, 1983. Fors tildan tarjima, Nasrullo Pur Javodiy tahriri ostida. Tehron. Tehron universiteti nashri. 1372 hijriy yil (1997).
  29. Muxammad al-Xorezmi. Matematicheskiye traktati. –T., 1964.
  30. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. –T.: “Fan”, 1983.
  31. Nasiri Xisrav. Zod al-musofirin. Berlin. 1935
  32. Nasr X.S.Islomda ilm-fan va sivilizatsiY. Garvard.1968 (ingliz tilida).
  33. Petrushevskiy I.P. Islom V Irane. L., 1966.
  34. Rudolf U. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. Kniga izdana koordinatsionnim byuro Fonda im. Fridrixha Eberta po Sentralnoy Azii. Almati: Fond “XXI vek” , 1999.
  35. Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-imto’ val mu’onisata. –Qohira. 1939- 1944. (arab tilida)
  36. Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-havomil va al-shavomil. –Qohira. 1951.
  37. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O’zbekiston, 1995.
  38. Filosofskoye naslediye narodov Sredney Azii i borba idey. – T.:Fan, 1988.
  39. Xayrullayev M.M. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish//Ma’naviyat yulduzları. –B.36.
  40. Yushkevich A. P. Arifmeticheskiy traktat Muxammeda ibn Musa al-Xorezmi. Trudi instituta istorii yestestvoznaniya i texniki AN SSSR, vip. 1. –M., 1964.
  41. Yushkevich A. P. Iстория математики в средние века. –M., 1961.

### **3-MAVZU: IBN MISKAVAYXNING FALSAFIY BILIMLAR RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**Reja:**

1. Abu Hayyon Tavhidiy dunyoqarashi.
2. Abu Ali Miskaveyh.
3. Yahyo ibn Adiyning axloqiy qarashlari.
4. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning falsafiy qarashlari.
5. Ibn Ravandiy va mu'tazila e'tiqodi. Ilohiyotga doir bahslar
6. Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi.
7. Roziyning hayoti va ilmiy faoliyati.
8. Roziy asarlari.
9. Roziyning falsafiy qarashlari.

**Tayanch iboralar:** Islom falsafasi, Xuroson, Andaluziya, Iskandariya, Umar Os, Eron, Rum, Antokiya, Harron, Edissa, Nisaybin, Rossilayn, Kliment Sentimiy Florens Tertullian, Yaqub Rahoviy, Jandishopur, Xusrav I Anusheravon, Muhammad al-Xorazmiy, "Algebra", "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-muqobala", "algoritm", "Zij"i (yulduzlar katalogi), "Zij al- mumtahan" ("Sinalgan zij"), "Hind hisobi haqida kitob", "Diksit Algorizmi", "Aljabr", X. Zuter, K. A. Nallino, I. Y. Krachkovskiy, usturlob, "Kitob surat ul-arz", Ahmad al-Farg'oniy, Damashq rasadxonasi, nilometr, Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi", "Alfraganus", Abu Hayyon Tavhidiy, "Al-imto' val mu'onisata", "Ming bir kecha", Miskaveyh, "Tajorib ul-umam", axloq, "Jovidone xirad", "Tahzib ul-axloq", dorishunos, riyoziyot, mantiq, tibbiyot, moba'dul tabia (metafizika), Yahyo ibn Adiy, do'stlik, yaqinlik, mehribonlik, sabr-toqat va chidam, hamda o'rtamiyonalikka intilish, Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-

Kindiy, Kufa, Suqrot, Ptolemey, Pifagor, “Tabaqotul atbo“, shariat, falsafa, ko‘prik, mu’tazila, “Besh mohiyatlar haqidagi kitob“, ruh, aql, javhar, ilohiy, modda, shakl, makon, harakat, zamon, Ibn Ravandiy, Ahmad ibn Tayyib Seraxsiy, diniy shubha, “Raddiyalar”, “Kitob al-intisor”, “Kitob az-zumrrud”, risolat, tanqid, Qur’on, Ibn al-Murtazo, dualistlar, rofiziylar, vahiy, aql, xayr, sharr, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziy, tabiatshunoslik, kimyo, tabobat, Rey, Bag‘dod, “Tabobatga doir barcha narsalarni qamrab oluvchi kitob”, “Sirrul-asror”, kategoriyalar, burhon, ilohiy falsafa, mutlaq, juz’iy, zamon, makon, jon, ruh, jism, xoliq, birlamchi modda, azaliy, manba, javhar, aql, surat, shakl.

### *Abu Hayyon Tavhidiy dunyoqarashi*

(vaf. 1023)

X asr oxirlarida adabiy va falsafiy doiralarda mashhur bo‘lgan olimlardan biri Abu Hayyon Tavhidiy edi. U yunon madaniyatidan yaxshi xabardor bo‘lgan Abu Sulaymon Sijistoniyning (vaf. 1000) shogirdi va do‘sti edi.

Tavhidiyning eng muhim asari “Al-imto’ val mu’onisata” bo‘lib<sup>16</sup>, xilma-xil adabiy va falsafiy mavzularda “Ming bir kecha” uslubida yozilgan. Uning o‘zi garchi falsafa sohasida mutaxassis bo‘lmasa ham, chuqur falsafiy mushohadalarga ega bo‘lgan. U o‘z zamondoshlari bo‘lgan tarjimon Ibn Zarradan tortib, faylasuf Miskaveyhga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lgan va ular bilan bahsga kirishgan. Tavhidiy nazaricha, ular molu-dunyoga xirs qo‘ygan, lazzattalab kishilar bo‘lganlar.

X asrda yunoniy manbalar va falsafaga qarshi taassub avj olayotgan edi. Tavhidiy o‘z kitobining o‘n yettinchi kechasi voqealarida o‘sha zamonning eng muhim nizoli mavzusi bo‘lgan falsafa bilan islomiy aqidalar aloqasiga to‘xtaydi. U qayd etadiki, “Ixvon as-safo”dan epchilroq bo‘lgan uning dushmanlari, ular erishganchalik muvaffaqiyat qozona olmadilar. Diniy aqidalar ilohiy vahiyga qarab ish tutganligi sabab faylasuf, mantiqshunos va munajjimlarning hunarlaridan beniyozdirlar.

Tavhidiy fikricha, “aql vahiyga bo‘ysunganidek, faylasuf ham payg‘ambarga bo‘ysunadi. Agar aqlning o‘zi haqiqatni kashf etishi uchun yetarli bo‘lganda, dinning mavjudligi ortiqcha bo‘lar edi. Ammo insonlarning yurish-turishlarining egalaridan biri bo‘lgan aql, ular orasida barobar taqsimlanmagan. Shuning uchun agar vahiy bo‘lmasa, insonlarning ko‘pchiligining qo‘li haqiqatga erishishga kaltalik qiladi”<sup>17</sup> (1-ilova).

### *Abu Ali Miskaveyh*

Miskaveyh Iziddavla Dilamiy huzurida xazinador bo‘lib ishlar edi. Tavhidiy garchi Ibn Sino kabi Miskaveyhning ilmiy maqomiga unchalik

1939- (arab tilida)<sup>16</sup> Qarang: .٩٩-٤٩٤٨ توحيدى، ابو حيان. المتع و المؤنسة. قاهره، -Qohira. 1944.

<sup>17</sup> Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-imto’ val mu’onisata. 2-jild, 10-sahifa. (arab tilida)

qoyil qolmagan bo'lsa ham, o'zining boshqa bir asari "Al-havomil va al-shavomil"da<sup>18</sup> uning falsafiy qarashlari to'g'risida mukammal ma'lumot beradi.

Miskaveyh tarix, ilmul nafs (ruh va jon) va axloq sohasida ijod qilgan. Uning "Tajorib ul-umam" asari umumiyl jahon tarixiga bag'ishlangan edi<sup>19</sup>. Bu musulmon madaniyatida jahon tarixi bo'yicha birinchi kitob hisoblanishi mumkin. Keyinchalik unga taqlid qiluvchilar paydo bo'ldi. Miskaveyhning eng mashhur asari "Jovidone xirad" ("Abadiy donishmandlik")<sup>20</sup> bo'lib, yunon, fors, arab manbalaridan olingan axloqiy pand-nasihatlar majmuasi edi. Uning "Tahzib ul-axloq" ("Ahloqni tuzatish")<sup>21</sup>, ilmul nafsga doir bir qancha risolalari ham mavjud. Qadimgi manbalarda qayd etilishicha, uning dorishunoslikka (giyohdan tayyorlanadigan dorilar) oid asarlari ham bo'lgan<sup>22</sup>.

Miskaveyh o'zining yirik asarlaridan biri bo'lgan "Al-fuzul asg'ar" kitobida<sup>23</sup> yangi aflatuncha hikmat namunalarini beradiki, vaqt jihatidan Ibn Sinoning "Najot" asaridan oldin yozilgan.

Miskaveyh aqliy ilmlarni quyidagi tartibda eslatadi: riyoziyot, mantiq, tibbiyot, moba'dul tabia (metafizika). Islomiy yangi aflatunchilik an'anasiga ko'ra, jumladan, Forobiy va Ibn Sino asarlarida odatda mantiq boshqa aqliy ilmlarni o'rghanish muqaddimasida kelar edi.

Miskaveyh aqidasicha, ashjolar manbai xudovand bo'lib, ular sodir etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu birinchi ibtido va borliq manbasidan sodir etilgan narsa birinchi aql bo'lib, uni aqli faol (faol aql) deb ataydilar. Islomiy yangi aflatunchilar bunday nomni o'ninch aqlga beradilar. Ikkinci sodir etilgan narsa – ruh, uchinchisi – falakdir. Uning fikricha, xudovand hamma narsani yashiringan yo'qlikdan yaratgan (2-ilova).

Miskaveyhning axloq falsafasi tabobatga o'xshab, yomonliklarni oldini oluvchi va ulardan tiyib turuvchilikdan tashqari, rujni salomat saqlovchi va kuchaytiruvchi vosita vazifasini o'tar edi.

### *Yahyo ibn Adiyning axloqiy qarashlari*

Yahyo ibn Adiy X asrdagi kalom va falsafiy ilmlarning yirik namoyandalaridan biri edi. U o'z davrining eng yirik mantiqshunosi ham bo'lgan.

-Qohira. 1951. <sup>18</sup> Qarang: توحيدى، ابو حيان. الهوامل و الشوامل. – قاهره، ١٩٤٨ // Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-havomil va al-shavomil.

<sup>19</sup> Qarang: Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahoni islom. –B.204.

tilida) <sup>20</sup> Qarang: مسکویه، ابو علی. جاودان خرد. – قاهره، ١٩٤٨ // Miskaveyh Abu Ali. Jovidone xirad. –Qohira. 1952. (arab)

tilida) <sup>21</sup> مسکویه، ابو علی. تهذیب الالحاق. – بیروت، ١١٤٨ // Miskaveyh. Tahzib ul-axloq. –Bayrut. 1966. (arab)

<sup>22</sup> Qarang: Qiftiy. Torixe hukamo. –B.331.

<sup>23</sup> Qarang: مسکویه ابو علی. الفوز الاصغار. – بیروت، هـ. ٤٨٩٨ // Miskaveyh, Abu Ali. Al-fuzul asg'ar. –Bayrut. 1319 hijriy yil. (arab tilida)

Yahyo ibn Adiyning “Tahzib ul-axloq” asari Miskaveyhning shu nomdag'i asaridan 50 yil ilgari yozilgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan arab tilida yozilgan axloqqa oid asar edi.

Uning bu risolasida aytishicha, insonning tabiiy tamoyili hayvoniy fitrat xususiyatiga ega bo'lib, faqat axloqiy tarbiyagina bu tamoyilni ma'lum hududgacha bartaraf qila oladi. Agar shunday bo'limganda axloqiy fasod shunchalik kuchli bo'lar ediki, uni tuzatishga hech qanday umid qolmas edi.

Yahyo ibn Adiy Miskaveyh kabi asosiy axloqiy tafovutlarni ruhning bir-biri bilan kurashadigan uch quvvatidan, ya'ni shahvat quvvati, g'azab va oqillikdan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Agar insonda shahvat quvvati g'alaba qilsa, u insonlikdan ko'ra hayvonlarga o'xshab qolib, o'z jismidan qochadi va inonixtiyorini maishatparastlikka va tabiiy tamoyillarga berib qo'yadi. G'azab quvvati kishida g'alaba qilgan chog'da, u isyonkor va tajovuzkor bo'lib, boshqalar bilan janjal ko'taradi<sup>24</sup>. Aql quvvati yagona kuchdirki, insonni hayvonot olamidan ajrata oladi. Har bir insonning kamoli shu quvvatgagina bog'liqdirki, u qolgan ikki quvvatdan ustun chiqishi lozim. Bu quvvatning maxsus fazilatlari quyidagilardan iborat: ma'rifat kasb etish, shaxsiy va ijtimoiy ishlarga ma'qul keladigan munosib yo'l tanlash, do'stlik, yaqinlik, mehribonlik, sabr-toqat va chidam, hamda o'rtalijonalikka intilish.

Razilliklarga bog'liq bo'lgan quvvat quyidagilardan iborat: firibgarlik, riy, rashk.

Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash barcha fazilatlarning sarchashmasidir. Shunday fazilatlarni hosil qilgan kishi o'zidagi hayvoniy va g'azab quvvatini mu'tadillashtirib, barcha nafsoniy quvvatlarni bir-biriga hamohang qila oladi<sup>25</sup>.

Yahyo ibn Adiy nazaricha, yirik fazilatlar quyidagilardan iborat: o'rtamijonalik, insof, haybat, sabr, viqor, rafoqat, shafqat, vafo, kamtarlik va sahovat. Ushbu fazilatlar qarshisida quyidagi razilliklar mavjud: shahvatga berilish, behayolik, yengiltaklik, jahldorlik, bag'ritoshlik, g'urur va takabburlik, ahdiga vafosizlik, yolg'onchilik va ko'rolmaslik<sup>26</sup>.

Yahyo ibn Adiy Bag'dodda yashab, Forobiydan ta'lim olgan bo'lishiga qaramay, islomiy kalomda o'z zamonasining musulmon mutakallimlari bilan bahs qilgan, cheklangan xristian olimlaridan biri edi.

Uning kalomga bag'ishlangan ko'p sonli asarlarining qo'lyozmasi Vatikan va Parij kutubxonalarida mavjuddir.

*Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning  
falsafiy qarashlari  
(800-879)*

<sup>24</sup> Qarang: // يحيى بن عدى. تهذيب الأخلاق. Yahyo ibn Yadiy. Tahzib ul-axloq (Axloqni tuzatish), -B.15, 18. (arab tilida)

<sup>25</sup> Qarang: O'sha joyda, 21-bet.

<sup>26</sup> O'sha joyda. 35-bet.

Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy birinchi arab faylasufi va o‘rta asrlarning yirik qomusiy olimi edi. Al-Kindiyning ijodi Abbosiy xalifa al-Ma’mun hukmronligi davriga to‘g‘ri kelganligi sababli, uning dunyoqarashiga mu’taziliylarning aqlga tayangan g‘oyalari katta ta’sir ko‘rsatgan.

Al-Kindiy 801-yilda Iroqning Kufa shahrida tug‘ilib, dastlabki ta’limni o‘z ona shahri va Basrada olgan, hamda keyinchalik Bag‘dodda davom ettirgan. U ilmiy bilimlarga, ayniqsa, yunon falsafasiga katta qiziqish bilan qarab, Arastu, Ptolemey, Pifagor, Suqrot, Jolinus va boshqa faylasuflarning ko‘p asarlarini arab tiliga tarjima qilgan o‘zidan oldingi o‘tgan mualliflar tomonidan qilingan kitoblar tarjimasini qayta ishlab, tahrir qilgan.

Al-Kindiy qalamiga 272-asar mansub bo‘lsa ham, bizgacha faqat uning ba’zi qismlarigina yetib kelgan.

Kindiy fikricha, azaliy narsa jinsga ega bo‘la olmaydi. U jismga ham ega emas. Bu haqda Kindiy Arastu va Prokilning olamni azaliyligi haqidagi aqidalariga qarshi chiqqan Iskandariyali Yahyo Nahaviy fikrlaridan foydalangan. U diniy mantiqqa tayanib, xudoning yagonaligini isbot qilishga uringan.

Kindiyning bizgacha yetib kelgan asarlaridan eng mashhuri “Besh mohiyatlar haqidagi kitob”dir. Unda quyidagi fikrlar bayon qilingan:

“Barcha javhalarda bo‘ladigan narsalarga kelsak, ular beshtadirlar: birinchisi – modda, ikkinchisi – shakl, uchinchisi – makon, to‘rtinchisi – harakat, beshinchisi – zamon. Javhar bor bo‘lgan barcha narsalarda modda mavjuddirki, u undan tarkib topgandir, shakl bordirki, biz uni ko‘ramiz va u tufayligina uning o‘zi boshqa narsalardan ko‘rinarli darajada farq qiladi, makon bordirki, uning o‘zi unda ma’lum hududlarda joylashgandir (negaki, biror-bir jism yo‘qdirki, uning mavjudligi uchun ma’lum joyda va muayyan hududlarda joy tayyorlanmagan bo‘lsin), shuningdek, harakat bordirki, uning tufayli u mavjuddir. Harakat muayyan makon va muayya zamondagina mavjuddir, negaki, zamon harakatning adadi (soni)dir. Agar biz barcha jismlarda harakat borligini va har qanday harakat bir makondan ikkinchisi tomon yuz berishini tushuntirsak, shu narsa ayon bo‘ladiki, har bir jismda zamon ham mavjuddir<sup>27</sup>”.

“Barcha ashyolar moddadan tarkib topgan. Modda – bu shunday narsaki, o‘zi yo‘qolmay, qarama-qarshilikni qabul qiladi”

Arab dunyosida shakl haqida birinchi bo‘lib mulohaza yuritgan shaxs ham al-Kindiydir: “Oddiy moddada qandaydir imkoniyat (qobiliyat) bordirki, u tufayli moddadan ashyolar tashkil topadi: shunday imkoniyat shakldir. Bu degani, shakl yoki qobiliyatdir... Men aytaman: shakl-turdagi farq bo‘lib,

---

<sup>27</sup> Izbrannyyo proizvedeniya misliteley stron Blynego i Srednego Vostoka. M, Soiekgiz, 1961 str. 107- 114, perevod A.V.Sagadeyeva.

uning tufayli u yoki bu narsa boshqa ashylardan ko‘rinishdan ajralib turadi”.

Kindiyning harakat haqidagi mulohazalari ham diqqatga sazovordir: “Harakat olti turga bo‘linadi: birinchidan, paydo bo‘lish, ikkinchidan, yo‘q bo‘lish, zavol topish; uchinchidan, bir narsadan boshqasiga aylanish; to‘rtinchidan, ko‘payish; beshinchidan, kamayish; oltinchidan, bir joydan boshqa joyga siljish.

Islom dunyosiga makon tushunchasini olib kirgan ham al-Kindiydir: “Nimaiki, jismni sig‘dirsa, biz uni makon deymiz, darhaqiqat, ba’zida sen bo‘sh bo‘lgan joyda havoni ko‘rasan, gohida esa, havo bo‘lgan joyda, suvni ko‘rasan. Bu shuning uchun yuz beradiki, suv kirganda, havo chiqadi. Ammo makon bunday holatda qoladi va yoki bu narsaning yo‘qolishi bilan u zavol topmaydi.

Makon mavjudligining mohiyati shundaki, u tufayli boshqa barcha narsalar o‘zgalaridan farq qiladi”.

Dunyoning tarkibiy tuzilishi va undagi mavjud tushunchalarni arab faylasufi o‘zining zamon haqidagi mulohazalari bilan yakunlaydi:

“Hozir o‘tgan zamonni kelgusi zamon bilan qo‘sadi. Ammo ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan “Hozir” uzoq vaqtga cho‘ziladigan muddatga ega emas, va u biz uning to‘g‘risida o‘ylaganimizcha, oldinroq o‘tib ketadi. Demak, bu “Hozir” zamon o‘rtasida biror narsa tasavvur qilinsa, bu bilan biz ular o‘rtasida zamon borligini tasavvur qilamiz. Bu esa, shundan dalolat beradiki, zamonning ma’nosi “avval” va “keyin”dan boshqa narsada ifodalanmaydi va u muddatdan boshqa narsa emas. Demak, zamon harakatni hisoblaydigan muddatdir.

Al-Kindiyning buyuk xizmati shundan iborat ediki, birinchi marta insoniyatning arab dunyosiga ma’lum bo‘lmagan aqliy tafakkur namunalarini arab tilida bayon qilish bilan keyingi davrda arab tilidagi ilmiy yo‘nalishlarga katta turki berdi. Natijada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino va boshqa yirik olimlar bu soxada yuksak darajalarga erishdilar.

### *Ibn Ravandiy va mu’tazila e’tiqodi.*

#### *Ilohiyotga doir bahslar*

Islom dunyosida IX asrda ozod bahs yuritish muhitida shakllangan falsafiy bedorlik davom etdi. Ahmad ibn Tayyib Seraxsiy (899 y. qatl et.) tomonidan denga shubha bildirildi. U ustoz al-Kindiy kabi mu’tazila oqimiga tamoyili kuchli bo‘lganligidan aqlni asosiy myoyor qilib olgan edi. Bu masalada undan ham so‘lroq bo‘lgan Ibn Ravandiy (vaf. 910) diniy shubhaga xatarli darajada yaqinlashdi.

Ahmad ibn Yahyo Abul Husayn ibn Ravandiy mashhur ilohiyotchi bo‘lib, umri davomida o‘z diniy-siyosiy qarashlarini bir necha bor o‘zgartirgan shaxs sifatida maydonga chikdi. U Marvarudda tug‘ilgan bo‘lsa ham, Bag‘dodda o‘sgan va mu’taziliy Bishr ibn al-Mu’tamir (825y. vaf.et.) va uning ilohiyot maktabining muxlisi bo‘lgan edi. Ibn Ravandiy o‘zining birinchi

asarlarini mu'taziliylar e'tiqodini targ'ib qilishga bag'ishladi. Ba'zi musulmon mualliflarining fikricha, u keyinchalik mu'taziliy e'tiqodidan qaytib, "xudosizlik"ka yuz tutgan, ya'ni mulxid bo'lган. Mu'taziliylar undan yuz ugirib qolish bilangina chegaralanmay, hokimiyatga arz qilib, uni jazosini berishni so'rashgan. Ibn Ravandiy qochishga majbur bo'lib, Kufadagi bir yahudiyning uyiga yashirinishga majbur bo'lган.

### ***Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi***

Qirkdan ko'п asarlar muallifi bo'lган Ibn Ravandiy, ularning ko'pchiliginu mu'taziliylar va umumiylar musulmonchilik aqidalarini rad qilishga bag'ishlagan. O'z navabatida, turli ilohiyot maktablari va yo'naliishlariga mansub bo'lган musulmon ilohiyotchilar (al-Hayyat, al-Ash'ariy, al-Jubboiy va boshqalar) Ibn Ravandiy qarashlariga qarshi ko'plab "Raddiyalar" yozishgan. Ana shunday "Raddiyalar" tufayli (avvalo al-Hayyatning "Kitob al-intisor") Ibn Ravandiyning uchta asaridan keltirilgan parchalar, jumladan, "Kitob az-zumurrud"dan bir bo'lak saqlanganki, ularda paygambarlikka, jumladan, Muhammad (SAV) risolatiga nisbatan tanqidiy fikr yuritilgan. Ularda payg'ambarlik mo'jizalari rad etilib, hatto Qur'onda keltirilgan ba'zi diniy aqidalar aqlga muvofiq kelmasligi ta'kidlangan.

Ibn Nadim Ibn Ravandiyning asarlarini sanab o'tib, uni yagona xudoga ishonuvchilar aqidasini rad qilishda ayblagan.

Bu muallifning ta'kidlashicha, Ibn Ravandiy qalam haki olish uchun yahudiylar, xristianlar va dualistlar uchun ham asarlar yozgan. Rofiziylar uchun imomat haqida yozgan risolasi uchun, ulardan o'ttiz dinor ish haqi olgan.

Ibn Ravandiy vahiyini zaruriy narsa hisoblagan. Uning fikricha, inson aqli bilan xudoni tanishga, xayr (yaxshilik) bilan sharrni (yomonlik) bir- biridan farq qilishga qodir. Uning aqidasicha, Qur'on ham badiiy jihatdan boshqa arabcha asarlardan benazir va tengi yo'q ijod namunasi emas. Undan zo'r mazmundagi asarlarni ham yozish mumkin<sup>28</sup>.

### ***Roziyning hayoti va ilmiy faoliyati*** (865-925)

Sharq xalklarining ilmiy tabiatshunoslik va falsafiy fikrlari rivojiga katta hissa qo'shgan o'rtalari mutafakkirlaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy 865 yilning 28 avgustida Rey shahrida (Eron) tug'ilgan. Yoshlik yillarida adabiyot, she'riyat va musiqa bilan shug'ullangan. Keyinchalik falsafa, riyoziyot, astronomiya, alximiya va tabobatni o'rganishga ruju' qo'ygan. Ar-Roziy yigitligidayoq tabobat bobida mashhur bo'lib, "o'z davrining Jolinusi" laqabiga sazovor bo'lган. Bir qancha vaqt Rey va Bag'dod shaharlaridagi kasalxonalarini boshqargan. Uning mashhur "Tabobatga doir barcha narsalarni qamrab oluvchi kitob" asari o'sha davr tabobat ilmining qomusi bo'lган. Roziyning bir muncha

<sup>28</sup> Qarang: //ابن نديم فهرست، ص. ۹۹۱. /Ibn Nadim. Fehrist. -B.255. 35-bet.

muddat Movarounnahrda yashab, bu o'lkanning ilmiy doiralari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatgani va bir necha shogirdlarga ega bo'lganligi ma'lum.

Uning ilmiy ijodi keyinchalik Beruniy va boshka buyuk mutafakkirlar ijodiga barakali ta'sir o'tkazgan. Hayotining so'nggi yillarini o'z yurtida o'tkazgan Roziy 925 yilning 26 oktabrida Reyda vafot etgan.

Roziy kimyo fanida ham zabardast olim bo'lib, mashhur "Sirrul-asror" ("Sirlar siri") kitobini yozgan.

### *Roziy asarlari*

Riyoziyotni istisno etganda, Roziy tabiatshunoslik va ijtimoiy sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan. Falsafaga doir asarlari ro'yxati quyidagicha:

1. Mantiqiy risolalar majmuasi. Unda kategoriyalar, burhon (dalil, isbot) va mantiqqa kirish (isog'uchi) haqida bahs va kalomda mantiqni qo'llash to'g'risida fikrlar mavjud.
2. Ilohiy falsafaga oid risolalar majmuasi.
3. Mutlaq va juz'iy hayulo (substansiya, modda).
4. Bo'shliq, to'lalik, zamon va makon.
5. Samoye tabiiy (tabiat ovozi kitobi).
6. Jahon yaratuvchi hakimga egaligi haqida.
7. Jismarning azaliyligi va foniyligi haqida.
8. Prokl ta'limotiga raddiY.
9. Plutarxning tabiatshunoslikka doir qarashlari haqida.
10. "Timey" kitobining tafsiri.
11. "Timey" kitobiga Plutarx qilgan tafsir haqida.
12. Jism o'z zotiga ko'ra, harakatda ekanligi va harakat tabiatning ibtidosi ekanligi haqida.
13. Tibbi ruhoni (ruhiy davolash).
14. Falsafiy yo'l-yo'riqlar.
15. Jon haqida kitob.
16. Imom Ma'sum aytganlari haqida.
17. Mu'tazila qarashlarining tanqid va tahlili haqida.
18. Ilmi ilohiy Aflatun nuqtai nazaridan.
19. Ilmi ilohiy Suqrot nuqtai nazaridan. <sup>29</sup>

### *Roziyning falsafiy qarashlari*

Roziyning falsafiy qarashlarini o'rganishga uning uch falsafiy risolasi manba bo'lib xizmat qila oladi: "Kitob tibb ar-ruhoni" ("Ruhiy davolash kitobi"), "Kitob siyrat al-falsafiya" ("Falsafiy hayot tarzi haqida kitob") va "Maqola fi amorat iqbol va ad-davlati" ("Baxt-saodat va boylikka erishish yo'llari haqida maqola").

Roziy borliq va dunyoning tuzilishi haqida quyidagilarni yozgan: "Bu besh narsa (xoliq, ruh, birlamchi modda, makon va zamon) haqiqatda mavjud

---

<sup>29</sup> Qarang: Mojed Faxriy. Islom olamida falsafa davoni. –B.115-116.

bo‘lgan dunyoning zaruriy manbalari (tagzamini)dir. Negaki, undagi his- tuyg‘u orqali qabul qilinadigan narsa – (har xil) shakllarni qabul qiluvchi, (turli-tuman) qo‘shiluvdagi birlamchi moddadir”.<sup>30</sup> (1-ilova).

Roziyning dunyoning azaliyligi haqidagi qarashlarini biz uning qarashlarini shiddatli tanqid qilgan Nosir Xisravning “Zod al- musofirin” (Musofirlarning ozuqa xaltasi”) asaridan topamiz:

“Darhaqiqat, birlamchi modda azaliydir, negaki, narsalarning boshqa narsalardan paydo bo‘lishining imkon yo‘q, maxsusan agar u jism bo‘lsa, chunki, aql bunday ta’limotni qabul qilmaydi”.<sup>31</sup>

Roziyning axloqqa bag‘ishlangan eng mashhur asari “Tibbi ruhoniy” edi. Uning fikricha, musiqa “tibbi ruhoniy” bir tomondan, badan tarbiya (tibbi jismoniy) ikkinchi tomondan bir-biri bilan mu’tadil ravishda qo‘shilganda kishining ruhiy va nafsoniy holatini yaxshilaydi.

Zamon to‘g‘risidagi nazariyada ham Roziy Arastuga qarama-qarshi bo‘lgan fikrda turgan. Uning aqidasicha, ruh xudo, hayulo va zamon kabi azaliydir. Roziy xudoning va ruhning azaliyligiga hech bir dalil keltirmaydi. Ammo bu jahonning zamonda yaratilganligini va uning foniyligini tan oladi. Aflatun esa, uning yaratilganligini, ammo abadiyligini tan oladi. Shunga binoan, qayd etish lozimki, Roziy Aflatun kabi ruhning va xudoning azaliyligini o‘z-o‘zidan oshkora hodisa hisoblaydi. Azaliymi, abadiymi bo‘lishidan qat’iy nazar, ruhning borligi va uning jism bandligidan ozod bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning o‘rni shu bilan belgilanmasdan, bunda falsafaning ham ruhni toza tutishda belgilovchi xususiyati borligini ta’kidlaydi. Bu fikrda Aflatun va Pifagor qarashlarining ta’siri oshkora sezilib turibdiki, ularda islomga muxolif bo‘lgan vahiy va u bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlik tushunchasiga joy yo‘q. Darhaqiqat, Roziy aqliy dalillarni guvohga chaqirib, xudo bilan inson o‘rtasida vositachilik qiladigan payg‘ambarlar risolatini rad etadi. Payg‘ambarlarni ummatlar o‘rtasiga nifoq soluvchi shaxslar sifatida ziyon keltirishlari mumkinligini ta’kidlaydi<sup>32</sup>. Uning qarashlari tanqidiga bir necha musulmon ilohiyotchilari o‘z asarlarini bag‘ishladilar. Jumladan, Abu Hotam Roziy (vaf. 321/933) va Nosir Xisrav (XI) uni kofirlikda aybladilar.

### Nazorat savollari:

1. Islom falsafasiga qaysi xalqlar dunyoqarashlari o‘z ta’sirini ko‘rsatdi ?
2. Qadimgi yunon falsafasi qanday qilib, arab-musulmon dunyosiga kirib keldi?
3. Bu mavzudagi eng qadimgi arab tilidagi manbani bilasizmi?
4. Yunon falsafasini o‘rganish markazlari bo‘lgan shaharlar qaysilar edi?

<sup>30</sup> Abu Rayhon Beruni. Izbrannye proizvedeniya (Tanlangan asarlar). Tom 1. –T., 1957. –S.288.

<sup>31</sup> Nasiri Xisrav. Zod al-musofirin. –Berlin. 1935. –S.74. (fors tilida).

<sup>32</sup> Beruniyning ta’kidlashicha, Roziy bu masalaga doir “Ibtol ul-nubuvvat” va “Uyub ul-anbiyo” (“Payg‘ambarlar aybi”) nomli risolalar yozgan: Qarang: Kraus P. Epitre de Beruni. –Paris, 1936. –P. 20.

5. “Kalila va Dimna” asarining muallifi kim edi?
6. “Almagest” va “Geometriya usuli” asarlari-chi?
7. Abbosiylar davrida ilm-fanning gullab-yashnashiga nimalar sabab bo‘lgan edi?
8. Yuhanno ibn Mosul qaysi asarni tarjima qilgan edi?
9. Vatandoshimiz o‘rtas asr mutafakkiri Al-Xorazmiy jahon ilm-fani ravnaqiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
10. Al-Xorazmiyning shoh asari nima deb nomlanadi?
11. Usturlob nima?
12. Xorazmiyning “Zij” asarida nechta jadval mavjud?
13. Xorazmiyning geografiyaga oid asarini bilasizmi?
14. Al-Farg‘oniy merosini o‘rganishdagi eng dastlabki manba nima?
15. Al-Farg‘oniyning yana qanday asarlarini bilasiz?
16. Al-Xorazmiy va al-Farg‘oniylarni o‘rganish Mustaqil O‘zbekiston istiqboli uchun nimalarni kafolatlaydi?
17. Islom dunyosiga falsafiy madaniyatning yoyilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
18. Abu Hayyon Tavhidiyning eng muhim asari nima to‘g‘risida edi?
19. Tavhidiy nima uchun zamondosh faylasuflarni tanqid ostiga oldi?
20. Miskaveyh qaysi sohalarda ijod qilgan?
21. Miskaveyh aqliy ilmlarni qay tartibda joylashtiradi?
22. Yahyo ibn Adiyning “Fazilatlar va razolatlar” tizimiga yana qanday kategoriyalarni kiritish mumkin?
23. “Tahzib ul-axloq” asarining muallifi kim?
24. Yuqoridaq mutafakkirlardan qay birining g‘oyalari Mustaqil O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi, deb o‘ylaysiz?
25. Roziyning arab-musulmon falsafasida tutgan o‘rni qanday?
26. Roziy qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan?
27. Roziyning shoh asari nima deb nomlangan?
28. Roziyning borliq falsafasida olamning asosida nima yotadi?
29. Uning borliq to‘g‘risidagi qarashlari qaysi g‘arb faylasufi ta’limotiga yaqinroq?
30. Roziyning axloqqa oid qarashlari uning qaysi asarida o‘z ifodasini topgan?
31. Roziyning falsafiy dunyoqarashiga qaysi faylasuflarning ta’siri katta bo‘lgan?
32. Nima uchun Roziy Abu Hotam Roziy va Nosir Hisravlар tomonidan kofirlikda ayblangan?

### **Adabiyotlar**

1. Abu Rayxan Beruni. Izbranniye proizvedeniY. T.1. Tashkent. 1957.
2. Al-Hayyot, Abul Husayn Abdurahim ibn Muhammad. Kitob al- intisor va-r-radd ala Ibn ar-Ravandiy al-mulhid. Beyrut. 1957 y 22-38 betlar (arab tilida).

3. Al Farabi. O razume i nauke. Alma-Ata. Iz-vo “Nauka”, 1975.
4. Ahmedov A. Ahmad al-Farg‘oniy//Ma’naviyat yulduzlari, –B.47.
5. Ahmedov A. Muso al-Xorazmiy. //Ma’naviyat yulduzlari. –B.36.
6. Bartold V. V. Vvedeniye k izdaniyu Xudud al-alam. Sochineniye: T. 8. –M., 1973.
7. Grigoryan S.M. Srednevekovaya filosofiya narodov Blyjnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
8. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blyjnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
9. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blyjnego i Srednego Vostoka. M., 1960.
10. Ibn Nadim Al-Fexrist. 216-217.(arab tilida).
11. Izbranniye proizvedeniya misliteley stran Blyjnego i srednego Vostoka. M,Sotsekgiz,1961.
12. Izbranniye proizvedeniya misliteley stran Blyjnego i Srednogo Vostoka. M., izd-vo sotsekgiz, 1961.
13. Islam ensiklopedicheskiy slovar. M., “Nauka”, 1991.
14. Islam. ensiklopedicheskiy slovar. M. “Nauka”. 1991.
15. Islom, tarix va ma’naviyat. Tashkent. Abdulla Qodiriy nomi-dagi xalq merosi nashriyoti. 2000.
16. Karimov I.A. Ahmad al-Farg‘oniy haykalining ochilishiga bag‘ishlangan marosimda so‘zlagan nutq. Asarlar. 7-jild. – T., O‘zbekiston. 1999.
17. Karimov U.I. Neizvestnoye sochineniye ar-Razi (“Kniga tay-ni tayn”).Tashkent. 1957.
18. Krimskiy A. Iстория Persii, yeъo literaturi i derveshskoy teosofii. M.,1912 tom II.
19. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
20. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
21. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
22. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
23. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane.T., “Fan”, 1976.
24. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosof-skoy misli v Uzbekistane. T., “Fan”, 1976.
25. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T., 2001.
26. Mikulinskiy S. R. Ocherki razvitiya istoriko-nauchnoy misli. –M.: Nauka, 1988.
27. Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahone islom (Islom dun-yosida falsafa tarixi jarayoni). Longman, 1983. Fors tiliga tarjima

- Nasrullo Pur Javodiy tahriri ostida. Tehron. Tehron universiteti nashri. 1372 hijriy yil (1997).
28. Mojed Faxriy. Sayre falsafa dar jahone islom (Islom dunyosida falsafa tarixi jarayoni). Longman, 1983. Fors tildan tarjima, Nasrullo Pur Javodiy tahriri ostida. Tehron. Tehron universiteti nashri. 1372 hijriy yil (1997).
  29. Muxammad al-Xorezmi. Matematicheskiye traktati. –T., 1964.
  30. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. –T.: “Fan”, 1983.
  31. Nasiri Xisrav. Zod al-musofirin. Berlin. 1935
  32. Nasr X.S.Islomda ilm-fan va sivilizatsiY. Garvard.1968 (ingliz tilida).
  33. Petrushevskiy I.P. Islom V Irane. L., 1966.
  34. Rudolf U. Al-Maturidi i sunnitskaya teologiya v Samarkande. Kniga izdana koordinatsionnim byuro Fonda im. Fridrixha Eberta po Sentralnoy Azii. Almati: Fond “XXI vek” , 1999.
  35. Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-imto’ val mu’onisata. –Qohira. 1939- 1944. (arab tilida)
  36. Tavhidiy, Abu Hayyon. Al-havomil va al-shavomil. –Qohira. 1951.
  37. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: O’zbekiston, 1995.

#### **4. MAVZU: XV-XVI ASRLARDA MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA O’RTA SHARQ MAMLAKATLARIDA MADANIY YUKSALISH, MADANIY QADRIYATLARNING RIVOJLANISHI**

**Reja:**

1. Sa’duddin ibn Umar Taftazoniyning falsafiy qarashlari.
2. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari va mantig‘i.

**Tayanch iboralar:** Yangi aflotuncha qarashlar, Forobiy, din, falsafa, haqiqatning ikki jihat, “Din falsafaning misollaridir”, “birinchi ibtido”, nazariy hikmat, aql, aql bil quvva, faol aql, xayr (yaxshilik), sharr (yomonlik), bilishning quroli: nutq, tasavvur, his, “bu jahon”, “u jahon”, Fozil shahar, vahiy, tasavvuriy quvvat, nazariy aql, qiyos, razolat, “yetuklik”, “barkamollik”, ruh salomatligi, badan salomatligi, baxt-saodat, kamolot, fazilat, Ibn Sino, “Shayx ur-rais”, nazariy falsafa – metafizika (oliy fan), matematika (o’rta fan), tabiat haqidagi fantabiatsunoslik (quyi fan), amaliy falsafa, siyosat, huquq, uy ishlarini boshqarish – iqtisod, axloq, tibbiyot, astrologiya, fiziognomika, kimyo

*Sa’duddin ibn Umar Taftazoniyning falsafiy  
qarashlari*  
(1322-1392)

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan alloma Sa'duddin Taftazoniy - Ashxobod yaqinidagi Niso shahri atrofidagi Taftazon qishlog'ida tug'ildi. Temur o'z markaziy davlatini tuzguncha bo'lgan feodal urushlar natijasidagi notinchiliklar yosh Taftazoniyni Xuroson shaharlari bo'ylab sargardon yurishga majbur etdi. 16 yoshli Sa'duddin ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va mantiq sohalarini mukammal egallaydi. Bu fanlarni o'z davrining mashhur olimlari bo'lgan Aziddin Ijiy va Qutbiddin Roziy at-Taxtoniylardan o'rganadi. Taftazoniyning 16 yoshida yozgan birinchi ilmiy asari unga shuhrat olib keldi va uning madrasada mudarrislik qilish huquqini qo'lga kiritishiga sabab bo'ldi.

1340 yildan 1372 yillar ichida Taftazoniy G'ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi madrasalarda dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozondi. Ayniqsa mantiq, nutq san'ati, arab tili grammatikasi va ilohiyot sohalarida unga teng keladigan olim kam topilar edi<sup>33</sup>. Uning zamondoshi mashhur arab tarixchisi Ibn Xaldun Taftazoniy haqida quyidagilarni yozgan edi: "Movarounnahrdan chiqqan quyoshning nuri arab mamlakatlari va Ispaniyagacha yetib kelmoqda"<sup>34</sup>.

Taftazoniyning shuhrati o'z poytaxti Samarqandga eng mashhur olimlar, hunarmandlar va ustalarni to'playotgan Amir Temurga ham yetib boradi. U Taftazoniyni Samarqandga chaqirtiradi. Taftazoniy umrinning oxirigacha saroyda yashaydi va 1392 yilning 12 avgustida vafot etadi.

Taftazoniyning nazariy merosi o'rta asrlar fanining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Qur'on tafsiridan boshqa asarlari arab tilida yozilgan bo'lib, ular ichida mantiq, nutq san'ati va arab tili grammatikasiga oid risolalari alohida o'rin tutadi. Bu risolalardan XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning ikkinchi yarmigacha Movarounnahr va uning atrofidagi o'lkalar madrasalarida o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan. Mashhur sharqshunos YE.E.Bertels o'z tadqiqotlarida fors she'riyatining buyuk klassigi Abdurahmon Jomiy she'riyat va nutq san'atini Sa'duddin Taftazoniy asarlaridan o'rganganligini ko'rsatib o'tadi.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar yozgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan asarlaridan diqqatga sazovorlari quyidagilar (1-ilova): "Tahzib al-mantiq val-kalom" ("Mantiq va kalomga sayqal berish"), "As-sa'diya" (XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan Kotibiyning mantiqa oid "Ash-shamsiya" risolasiga yozilgan sharh), "Al-mutavvol" (Nutq san'atiga oid "Keng talqin"""), "Muxtasar al-maoniy" (ritorikaga oid "Qisqacha ma'nolar"), "Al- irshod al-xodiy" (arab tili grammatikasiga oid "Yo'l boshlovchi rahbar"), "Al-maqosid at-tolibin" (falsaфа va kalomga oid "Tolibi ilmlarning maqsadlari"), "Risola fi zavoye al-musallas" ("Uch burchakning burchaklari haqida risola"). Bulardan tashqari Taftazoniy o'zidan oldingi o'tgan mutafakkirlarning asarlariga ko'plab sharhlar va hoshiyalar yozgan.

<sup>33</sup> Qarang: Sadixon Murtazoyev. Sa'duddin Taftazoniy asarlarida dunyoqarash, bilish nazariyasi va mantiqiy masalalarining yoritilishi. Avtoreferat. -T.; 1975. -B.5.

<sup>34</sup> Ibn Xaldun. Muqaddima. -Qohira. 1995. 1-jild. -B.545.

Taftazoniy dunyoqarashidagi diqqatga sazovor masalalardan biri qazo va qadar hamda iroda erkinligidir. Ma'lumki, iroda erkinligi masalasida ko'plab faylasuflar har xil fikrlar bayon etishgan va inson o'z xulq- atvorida erkinmi, ya'ni ixtiyori o'z qo'lidami, degan savolga javob topishga intilganlar.

Sa'duddin Taftazoniy o'zining "Tahzib al-mantiq val-kalom" asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to'xtaladi. Uning fikricha, har qanday oljanoblik va xayrli ishlar o'z tabiatiga ko'ra, xudoning mohiyatidan kelib chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida xayr va sharofatning yaratganligi sababidan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo'lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgandir. Shunday qilib, uning fikricha, xudo – o'z bandalariga ikki yo'lni "taklif" etadi, ya'ni sharaflı, xayrli faoliyat ko'rsatishni yoki nomatlub mashg'ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa, jazoga tortilishni keltirib chiqaradi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, xudo tomonidan ko'proq insonlarga xayrli ishlar qilish, g'ayri shar'iy ishlar kamroq bo'lishi ta'kidlanadi. Qaysi yo'lni tanlash insonning o'z irodasiga bog'liqdir. Shuning uchun xudo yomon xulq-atvorli insonlarni jazolaydi. Yomon xulq-atvorni qoralash xudoning irodasiga qarshi borish emas, chunki yomonlikning yer yuzida mavjudligi insonlarni poklikka chorlovchi sinovdir.

Bilish nazariyasida Taftazoniyning qarashlari Ibn Sinonikidan farq qiladi. Masalan, Ibn Sino narsa, hodisalar haqidagi ma'lumotlarni bilim deb bilsa, Taftazoniy ularni alohida his-tuyg'u va bilim o'rtasidagi vositaviy bosqich, deb tushunadi. Uningcha, ashyolar va hodisalar mavjudligi tufayli ular uyg'otgan his-tuyg'u shakllaridan bilim yuzaga keladi. Chunki hissiyot moddadan uning zaruriy sifatlari va aloqalari bilan birligida tashqi qiyofasinigina qabul qilib oladi. Shu sababdan mutafakkirning fikricha, hissiy tasavvurga ega bo'lish uchun moddaning bo'lishligi shartdir. Lekin aqliy, mantiqiy bilish esa, moddiy asosdan ancha uzoqlashgan bo'lib, hissiy bilimlarga qaraganda yuqoriroq bosqichda hosil bo'ladi.

Taftazoniy fikricha, mantiq tafakkurdagi xatoliklardan xalos qiladigan vosita bo'lib, yangi bilimlar hosil qilish zaminidir<sup>35</sup>.

Taftazoniy fikricha, mantiqiy bilish shakllari tasavvur va tasdiqdir. Biror ashyo yoki hodisani tasavvur etish va uning to'g'risida hukm chiqarishda asosiy o'rinni til bajaradi. Ong va uning belgisi bo'lgan nutq bir-biri bilan bevosita bog'langandir. Biror ashyo yoki hodisaning belgisi bo'lgan so'zlar, biror bir mazmun tufayligina qandaydir ma'no kasb etadi. So'zlar va ularning har xil turlarini tilshunoslik fani o'rganadi, mantiq esa, muayyan mazmunga aloqador munosabatdagi belgilar o'rmini aniqlovchi so'zlarni o'rganadi. Shunday qilib, Taftazoniy fikricha, mantiq fani mavhum mantiqiy ong bilan bog'langan bo'lib, tushuncha va hukmni ifodalovchi so'zlar va gaplarni tahlil etadi.

---

<sup>35</sup> Qarang: Taqrif al-marom fi tahzib al-kalom. 2-qism, -B.65 (arab tilida, qo'lyozma).

Aql quroli orqali ashylarni aks ettiradigan tushunchalarni ta’riflab, Taftazoniy o‘z oldiga shunday savol qo‘yadi: tushunchalar qanday kelib chiqadilar va shakllanadilar? Taftazoniy aqlning tahliliy-xulosaviy qobiliyati (tahlilot) va shuuriy iste’dodi (mafhumot) tushunchalar shakllanishi uchun asosiy yo‘l deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha: “Faqat tahlilot va mafhumot vositasidagina ashylar haqida muayyan tushunchalar hosil etish mumkin”<sup>36</sup>.

Taftazoniy o‘z falsafiy qarashlarida tabiat hodisalari o‘rtasida sabab- oqibat munosabatlari mavjudligiga shubha qilmay, borliqning ana shunday munosabatlarini diqqat bilan tahlil etib, sabab va oqibatning muayyan turlarini ajratib ko‘rsatadi. “Sabab – bu shunday narsaki, ashyoning mavjud bo‘lishi unga bog‘liqidir. Sabab ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatiga ko‘chib o‘tsa, unda ichki sabab namoyon bo‘lgan bo‘ladi, agarda buning aksi bo‘lsa, unda tashqi sabab o‘zligini ko‘rsatgan bo‘ladi”<sup>37</sup>.

Taftazoniyning ilmiy merosi Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari ijtimoiy- siyosiy tafakkuri tarixida munosib o‘rin tutgan qadimgi yunon faylasuf va mantiqshunoslari maktabiga mansubdir. Ammo eramizdan oldingi ilmiy yutuqlar bilan chegaralanmasdan, IX-X asrlardagi Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy yuksakliklariga tayangan holda uni rivojlantirgani va yangi g‘oyalar bilan boyitganligi diqqatga sazovordir.

Taftazoniy Temur davridagi Samarqand ilmiy muhitida o‘sha zamon olimlari bilan birgalikda samarali ijod etib, keyinchalik jahonshumul ahamiyat kasb etgan Ulug‘bek mакtabini vujudga kelishiga zamin hozirlagan mutafakkirlardan biri bo‘lib tarixda qoldi. U islam falsafasi bo‘lgan kalomga mantiqiy xulosalarni tatbiq etib, uni kuchaytirdi va ilohiyotni ham jozibali fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning asarlarining ilmiy qimmati hozirda ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Taftazoniyning ilmiy merosini o‘rganish tafakkurimiz tarixining zarhal sahifalarini boyitish imkonini beradi.

### *Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari va mantig‘i (1339-1413)*

Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandning shon-shuhuratini oshirish va uni jahon ilmiy markazlaridan biriga aylantirish niyatida o‘z poytaxtiga to‘plagan olimlaridan biri Mir Sayyid Sharif Jurjoniydir. U 1387 yili Sheruz fath etilganidan keyin, u yerdagi mashhur kishilar qatorida Samarqandga jo‘natilgan. Jurjoniy deyarli 20 yil davomida Samarqandda barakali ijod qilib, faqat Temur vafotidan keyingina Sheruzga qaytib, 1413 yili o‘sha yerda vafot etdi.

---

<sup>36</sup> Ma’naviyat yulduzлari. –B.165.

<sup>37</sup> O‘sha joyda, –B.164.

Ilmiy adabiyotlarga Mir Sayyid Sharif nomi bilan kirgan Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayniy Jurjoniy 1339 yilda Eronning Gurgon (arabcha - Jurjon) viloyati markazi bo‘lgan Astrobod shahri yaqinidagi Tog‘u qishlog‘ida tug‘ildi.

Jurjoniy yoshlik yillaridan Sharqda mavjud bo‘lgan fanlarning barcha turlari bilan shug‘ullandi. Islom falsafasi va kalom, mantiq, til masalalaridan tashqari tabiatshunoslikka doir sohalarni qunt bilan o‘rganib, ular haqida katta ilmiy asarlar yozib qoldirdi.

1365 yili Jurjoniy Hirota mashhur faylasuf Qutbiddin Muhammad ar-Roziy at-Taxtoniydan ta’lim olish uchun boradi. Ammo Taxtoniy o‘zining qarib qolganligini aytib, Misrdagi shogirdi Muborakshoh oldiga borishni maslahat beradi. Lekin Jurjoniy 1368 yilgacha Hirotda qoladi. So‘ngra turk faylasufi Muhammad Oqsaroiydan ta’lim olish uchun Qoramон shahriga jo‘naydi. Muhammad Oqsaroiyning shuhrati va uning asarlari Jurjoniy e’tiborini jalb etgan bo‘lib, u mashhur faylasuf va mantiqshunos bo‘lib yetishgan Oqsaroiyning shogirdi Muhammad Mullo Fanoriy bilan uchrashib, do‘s tutinadi va birgalikda 1370 yilda Misrga jo‘nashadi. Jurjoniy Qohirada 4 yil davomida mashhur mantiqshunos Muborakshoh va Akmaliddin al-Bobartiyalar ma’ruzalarini tinglab, o‘z saviyasini oshirgach, 1374 yilda Istambulda ilmiy izlanishlarini davom ettiradi. U yerdan Vataniga qaytib, 1387 yilgacha Sheroz madrasalarida dars beradi. So‘ng Samarqandda madrasalarda dars berish bilan birga Temur saroyidagi ilmiy bahslarda faol ishtirok etadi. Bu yerda u ilmu fanning barcha sohalariga bag‘ishlangan bir qator risolalar, o‘tmish mutafakkirlarining asarlariga sharhlar yozadi.

Jurjoniy 50 dan ortiq asar yozgan bo‘lib, ular fanning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan edi. Ammo Mirzo Ulug‘bekka bevosita ta’sir etgani, shubhasiz uning XII-XIII asrlarda Xorazmda yashab o‘tgan Mahmud al-Chag‘miniyining astronomiyaga oid asarlariga yozgan “Sharhe mulahhas al-haya” (“Astronomiyaga oid saylanmaga sharh”) va Nasriddin Tusiy asariga bag‘ishlangan “Sharhe tazkiratul Nasiriyat” (“Astronomiya haqida eslatmaga sharh”) asarlaridir.

Jurjoniy bilish nazariyasi va mantiqqa doir “At-ta’rifot” (“Ta’riflar”), “Usuli mantiqiya” (“Mantiq usuli”) va ilmiy bahs faniga bag‘ishlangan “Odob ul-munozara” (“Munozara olib borishning qoidalari haqida risola”) kabi arab tilida yozilgan asarlarning muallifi hamdir. Bundan tashqari Jurjoniyning fors tilida yozilgan mantiqqa oid bir necha asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Bulardan “Sug‘ro” (“Kichik dalil bo‘la oladigan hukm”), “Kubro” (“Katta dalil bo‘la oladigan hukm”), “Avsat dar mantiq” (“Mantiqda o‘rta xulosa”) va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Uning “Sharhe faroize Sarojiya” (“Meros bo‘lish majburiyatlarining Sarojiy ta’rifiga sharh”) asari huquqshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, faqih Sajovandiy asarlariga javob tariqasida yozilgan.

Jurjoniy XIV asr faylasufi Ezidin Abdurahmon al-Ijiy (1300- 1356)ning “Mavoqif fi ilm al-kalom” (“Kalom ilmidagi manzillar”)

asariga yozgan “Sharhe mavoqif fi ilm al-kalom” sharhi uning zamondoshlari va undan keyingi avlod olimlari uchun falsafa va mantiq bo‘yicha o‘ziga xos qomus maqomiga ega bo‘ldi.

Sharhlardan tashqari Jurjoniy juda ko‘p falsafiy asarlarga hoshiyalar yozgan. Uning Abu Ali ibn Sinoning “Ishorat” (“Ko‘rsatmalar”) asariga yozgan sharhi, Nasiridin Tusiyning “Tajvid” (“Abstraksiya”) asariga sharh yozgan shayx Shamsuddin Mahmud Isfahoniy (1294-1349)ga javob tariqasida yozilgan hoshiyasi diqqatga sazovordir.

Jurjoniy dunyoqarashi, undan oldin o‘tgan salaflarinidek, o‘rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi, borliq haqidagi ta’limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash ta’limoti, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoniy aqidasiga xos bo‘lgan narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Besh bobdan iborat “Oinaye gitinamo” (“Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu”) risolasining birinchi bobini “vojib ul-vujud” va “mumkin ul-vujud” mavjud ekanligini asoslashga bag‘ishlaydi. Jurjoniy unga shunday ta’rif beradi: “Yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, bor bo‘lishi esa, zarur bo‘lgan narsa vojib ul-vujud, deb ataladi. Masalan, Xoliqning o‘zligi kabi tushuncha. Borlig‘i ham, yo‘qligi ham zarur bo‘lmagan narsa esa, mumkin ul-vujud, deb ataladi”<sup>38</sup>.

Jurjoniy fikricha, vojib ul-vujud xudo bo‘lib, mumkin ul-vujud moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya’ni xudoning borligini tan oladi. Uningcha, mumkin ul-vujud o‘zining bor bo‘lishi uchun qandaydir tarzda bo‘lsa ham, biror-bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror-bir narsa tufayli, ya’ni birinchi sabab mohiyatiga ko‘ra, mumkin ul-vujud darajasiga ko‘tariladi.

Jurjoniy fikricha, hamma jismlar bir-biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatda sabab-oqibat nisbatida bo‘ladilar. “Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu” risolasida u shunday yozadi: “Bor bo‘lishga imkonibor narsa ikki tarkibiy qismdan – substansiya va aksidensiyadan, ya’ni tub mohiyat va tasodifiy holdan yoki hodisadan tashkil topadi. Agar mavjud bo‘lishga imkonibor narsa o‘z mavjudligi uchun joyga ehtiyoj sezmasa, unda uni tub mohiyat deb, agarda unga ehtiyoj sezsa, hodisa deb ataladi. Tub mohiyat besh xil bo‘lishi mumkin. Agarda biror-bir tub mohiyat, boshqa joyda biror narsa o‘rnida qaror topgan bo‘lsa, u joylashgan o‘sha joy modda deb, holat esa, – shakl, deb ataladi. Agar u o‘z ichiga holat va joyni olgan bo‘lsa, u jism, deb nomlanadi. Agar tub mohiyat bu aytilgan uch narsani o‘z ichiga olmasa, u ayiruvchi substansiya, deb ataladi. Agarda shu ayiruvchi tub mohiyat jismga ega bo‘lsa, u holda uning o‘zgaruvchi qismi ruh deb ataladi. Bu jismlardagi o‘zgarmaydigan narsa aql

<sup>38</sup> O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo‘lyozmalar fondi: “Oyinaye gitinamo”, 2984- raqamli qo‘lyozma, 1-sahifa (fors tilida).

deb ataladi. Agarda ushbu aql bevosita vojib ul-vujuddan kelib chiqqan bo‘lsa, u boshlang‘ich ong yoki umumiy aql, deb ataladi”<sup>39</sup>.

Jurjoni tabiatdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta’kidlaydi. Hamma mavjud ashylardagi butun harakat va o‘zgarishlar faqat makon va zamondagina ro‘y beradi. Jurjoni dunyoqarashiga xos xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog‘langan bo‘lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta’riflashidir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to‘rt unsur, ya’ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya’ni metallar, o‘simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to‘rt unsurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. To‘rt unsur doimo harakatda ekanligidan o‘zgaruvchan bo‘lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Havo suvgaga, suv tuproqqa va hokazo.

Jurjoni falsafasida moddiylik g‘oyalarigina emas, balki dialektik yondoshuv ham mavjud. Uning fikricha, moddiylikdan xoli bo‘lgan bo‘sh joy yo‘q. Bu haqda u shunday yozadi: “Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog‘lanib turgan narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Har bir atrofdagi dunyo, o‘zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo‘shliqning bo‘lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo‘lakchalarning tarkibiy majmuasi olam, deb ataladi”<sup>40</sup>.

Mir Sayyid Sharif Jurjoni mantiq ilmiga salmoqli hissa qo‘shdi. U Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari mantiqiy merosining barcha oqimlarini tahlil etib, ularni yanada rivojlantirdi.

XV-XVI asrlar davomida mantiq ilmini o‘rganish va o‘qitish ishlari XIII asrda yozilgan darsliklarga XIV asrda yozilgan sharhlar, ayniqsa, mashhur mantiqshunos at-Taxtoniy (1290-1365), uning shogirdi Ibn Muborakshoh (1310-1375), Samarqandda ijod qilgan uning ikki izdoshi – Taftazoniy (1322-1392), Jurjoniy tomonidan yozilgan sharh va hoshiyalar asosida olib borildi. Bu davrda arab tiliga nisbatan fors tilida ko‘proq asarlar yozildi. Mohiyat jihatdan mantiq ilmining falsafa va ilohiyot sohasidagi tadqiqotlarda ishlatilish jarayoni ko‘paydi. Jurjoniy o‘z ijodida mantiqni falsafadan ajratmagan holda, uni ko‘proq huquq va til sohalarida qo‘llanilishini ta’minladi. Uning barakali ijodi tufayli shu davrdan boshlab, islom madrasalarida mantiqni o‘qitish huquq va til fanlari bilan bog‘liq holda olib borildi. Natijada mantiq ilmiga islom aqidalariga xos bo‘lgan “begona ta’limot”, deb g‘araz bilan qarash, asta-sekin barham topa boshladи.

<sup>39</sup> O‘sha joyda.

<sup>40</sup> Jurjoniy. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag‘miniy. O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo‘lyozma, 225-sahifa (arab tilida).

Jurjoniyning ta'kidlashicha, nazariy bilimlar hayotiy tajribada hosil qilingan boshlang'ich bilimlar va ular to'g'risida fikrlash yo'li bilan shakllanadi. Bunday fikrlash jarayonini u xulosa, deb ataydi va uning uch turini ko'rsatib o'tadi (2- ilova). Bular: qiyos (sillogizm), isteqro (induksiya

– bo'lakdan butunga tomon hukm yuritish) va hads (analogiya - o'xshatish). Bulardan qiyos xulosaning bosh turi hisoblanib, nazariy bilimlar hosil qilishning asosiy vositasi bo'lib maydonga chiqadi.

Isteqro (induksiya) tushunchasi ostida Jurjoniy shunday xulosani nazarda tutadiki, unda dastlabki xususiy shartlar asosida umumiy natija chiqariladi. U ikki xil isteqroni, ya'ni to'la va to'la bo'lmanan isteqroni ko'rsatib o'tadi.

To'la isteqroda har bir bo'lakdag'i biror-bir sifat mavjudligiga asos- lanib, ana shunday sifat xususiyati umumiy butunlikda ham bor ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

To'la bo'lmanan isteqro shunday xulosadirki, umumiy butun bo'lgan narsaning ba'zi bir qismlarida mavjud bo'lgan biror-bir xususiyatdan kelib chiqib, shunday xususiyat butunda ham mavjud ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Jurjoniy to'la bo'lmanan induksiya faqat taxminiy mulohazagagina olib keladi, deb o'ylaydi va uning ta'kidlashicha, biz olovning ayrim xususiy holatlarini kuzatsak, har qanday olov issiqlik chiqaradi, degan ayrim xususiyatga ega bo'lgan bilimdan, ya'ni deduktiv (butundan bo'lakka o'tadigan) holatga o'tadigan xulosa kelib chiqishi mumkin<sup>41</sup>. Shu bilan birga uning ta'kidlashicha, induktiv yo'l bilan hosil qilingan bilimlar hamma vaqt ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi. Chunki, inson tajribasi hech vaqt to'la mukammallikni bermaydi.

Jurjoniyning induktiv va deduktiv xulosalar haqidagi fikri Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari fikrini eslatadi. Ammo bu fikrga noyob xulosalar qo'shilib, takomillashtirilgan.

Jurjoniyning ilmiy faoliyati tufayli mantiq Temuriylar davrida inson bilimlarining barchasiga qo'llaniladigan qoida va mezon qonuniga aylandi. U har bir yuritilayotgan hukmnинг to'g'riliгini tortuvchi fanlarning toshu tarozisi sifatida namoyon bo'ldi. Natijada tez orada vujudga kelgan Ulug'bek rasadxonasing ilmiy tadqiqotlarida keng qo'llanildi.

Jurjonyi Ulug'bekni madrasada bevosita o'qitibgina qolmay, uning Akademiyasini vujudga kelishiga ham katta hissa qo'shdi. Chunki, uning shogirdlari bu ilmiy markazning negizini tashkil etar edilar. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to'laligicha o'rganish mustaqil Respublikamiz ma'naviyatiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir.

---

<sup>41</sup> Qarang: Mir Sayyid Sharif Jurjoniy. At-ta'rifot. –Istanbul: Dor ul-tabaote omera". 1818 y., –B.11. (arab tilida)

## **Nazorat savollar:**

1. Sharqda yangi aflatuncha qarashlar qaysi faylasuflar misoli-da namoyon bo‘ldi?
2. Forobiyning fanlar tasnifi qanday ko‘rinishda edi?
3. Nima uchun Forobiyni yangi aflatunchilik yo‘nalishining va-kili deymiz?
4. Forobiyning borliq haqidagi qarashlaridagi “Yagona ibtido” nima?
5. Forobiy din va falsafa munosabatini qanday izohlagan edi?
6. Forobiy fikricha, bilishning eng ishonchli manbasi nima?
7. Mutafakkirning siyosat va axloqqa oid qanday asarlarini bilasiz?
8. Abu Nasr Forobiy merosini o‘rganish O‘zbekiston ma’naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etishi mumkin?
9. Nima uchun Ibn Sinoni yangi aflatunchilik davomchilari qatorida ko‘ramiz?
10. Ibn Sinoning mantiqiy qarashlari uning qaysi asarlarida o‘z aksini topgan?
11. Ibn Sino fikricha, olamning birinchi sababi nima?
12. Ibn Sino va Forobiylarning fanlar tasnifida qanday tafovutlar mavjud?
13. Ibn Sino din va falsafa munosabatini qanday izohlagan edi?
14. Ibn Sino fikricha, bilimning eng asosiy manbai nima?
15. Mutafakkirning ilohiyotga bag‘ishlangan asarlarini bilasizmi?
16. Sizningcha, Ibn Sino ilmiy merosini tadqiq qilish jamiyatimiz ma’naviy hayotida qanchalik ahamiyatga molik masala?
17. Abu Abdulloh Xorazmiy kim bo‘lgan?
18. Abu Abdulloh Xorazmiy dunyoqarashiga qaysi faylasuflarning ta’siri kuchli bo‘ldi?
19. “Mafotih ul-ulum” necha bobdan iborat?
20. Nima uchun mutafakkir ilmlarni tasniflashda tarix ilmini arab ilmlari qatorida keltirgan?
21. Abu Abdulloh Xorazmiy va Forobiylarning fanlar tasnifida qanday umumiylilik bor?
22. Muso al-Xorazmiy va Abu Abdulloh al-Xorazmiylarni yaqqol ajratib turadigan jihatlar nimalar?
23. Abu Abdulloh Xorazmiy Ovro‘pada kimlar tomonidan o‘rganilgan?
24. Mutafakkirning ilmiy merosi nima uchun kam o‘rganilgan?
25. Abu Rayhon Beruniy Sharq falsafiy tafakkuri tarixida qanday o‘rin tutadi?
26. Abu Rayhon Beruniy hayoti to‘g‘risida mavzudan tashqari yana nimalar bilasiz?
27. Mutafakkirning borliq haqidagi qarashlarida qaysi faylasuflarning ta’siri sezilib turadi ?
28. Deistik ta’limot, deganda nimani tushunasiz?

29. Beruniyning al-Xorazmiy va al-Farg‘oniy larning qaysi fikrlarini qo‘llab-quvvatladi va rivojlantirdi ?
30. Beruniy fikricha, inson bu nima?
31. Mutafakkirning ijtimoiy-axloqiy qarashlarida geografik determinizm ildizlari mavjudmi?
32. Beruniyning ijtimoiy qarashlarida qanday g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi?
33. Ushbu davr falsafasining asosiy xususiyatlarini bilasizmi?
34. Taftazoniyning taqdir masalasiidagi qarashlari qanday edi?
35. Taftazoniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari uning qaysi asarida o‘z aksini topgan?
36. Taftazoniyning bilish nazariyasi Ibn Sino qarashlaridan qaysi tomonlama farq qiladi?
37. Jurjoniyning shoh asari nima deb nomlanadi?
38. Jurjoniy o‘z merosida qanday falsafiy muammolar bilan shug‘ullangan?
39. Isteqro nima?
40. Jurjoniy ilmiy faoliyati temuriylar davri ilm-fani uchun nechog‘li ahamiyatli?

### **Adabiyotlar**

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. T., “Yozuvchi” nashriyoti.2002.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.,1993.
3. Abu Rayhon Beruniy. Dorivor o‘simliklar haqida kitob (Saydana). T., “Fan”, 1968.
4. Abu Rayhon Beruniy. GeodeziY. T., “Fan”, 1966 (rus tilida).
5. Abu Rayhon Beruniy. Izbrannye proizvedeniY. T. 2, 1963.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T. “Fan”, 1957.
7. Abu Rayhon Beruniy. MineralogiY. T., “Fan”, 1967.
8. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: “Fan”, 1968
9. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. T., “Fan”, 1965.
10. Al-Farabi. O razume i nauke. Alma-Ata. Izd-vo “Nauka”. 1975.
11. Bahodirov O.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. Ma’naviyat yulduzlari. –B.82.
12. Bulgakov P.G. Jizn i trudi Abu Rayxana Beruni. T., “Fan”, 1972.
13. Grigoryan S.N. “Iz istorii filosofii Sredney Azii i Irana (IX- XII vv)”.M., 1960.
14. Grigoryan S.N. Srednevekovaya filosofiya narodov Blijnego i Srednego Vostoka. M., 1960..
15. Jurjoniy. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag‘miniy. O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo‘lyozma, (arab tilida).

16. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. –T., 2001.
17. Ibn Sina. Danish-name. Dushanbe, 1957.
18. Ibn Xaldun. Muqaddima. –Qohira. 1995. 1-jild. –B.545.
19. Izbrannye proizvedeniya misliteley stran Blynnego i Srednego Vostoka. M., izd-vo sotsialno-ekonomiceskoy literaturi 1961.
20. Irisov A. Hakim ibn Sino. T., “Fan”, 1996.
21. Yo’ldoshev S. Qodirov M, Usmanov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001
22. Yo’ldoshev S. Qodirov M, Usmanov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
23. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O’zbekiston, 2008.
24. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o’rta asrlar). TDSHI nashriyoti. 2010.
25. Materiali po istorii obshchestvenno-filosofskoy misli narodov Uzbekistana. T. “Fan”, 1976
26. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001
27. Mir Sayyid Sharif Jurjoni. At-ta’rifot. –Istambul: Dor ul- tabaote omara”. 1818 y.(arab tilida).
28. Muminov I.M. “Iz istorii razvitiya obshchestvenno-filosof-skoy misli v Uzbekistane. T., 1957.
29. Nasr S. X. Islomda ilm-fan va sivilizatsiya. Garvard. 1968. (ingliz tilida).
30. Ocherki po istorii obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. T., 1977.
31. Ocherki po istorii obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. T., “Fan”, 1977.
32. Raxovskiy B. E. Filosofskoye naslediye Ibn Sini. Jurnal “Voprosi filosofii”, M., 1995, № 5.
33. Sadixon Murtazoyev. Sa’duddin Taftazoniy asarlarida dunyoqarash, bilish nazariyasi va mantiqiy masalalarining yoritilishi. Avtoreferat. -T.; 1975.
34. Taqrrib al-marom fi tahzib al – kalom. 2-qism, (arab tilida, qo’lyozma).
35. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. Akademik M. M. Xayrullayev tahriri ostida. –T.: O’zbekiston, 1995.
36. O’zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo’lyozmalar fondi: “Oyinaye gitinamo”, 2984-raqamlı qo’lyozma, (fors tilida).
37. Fayzullayev O. A. Problemi protivorechiya v trudax klassikov yestestvoznaniye i filosofii Sredney Azii. T., “Fan”., 1974
38. Farabi. Sushestva voprosov. Izbrannye proizvedeniya

- misliteley Blijnego i Srednego Vostoka. M., 1968, 171-bet.
- 39. Farabi. Traktat o vzglyadax jiteley dobrodetelnogo goroda // V knige: Grigoryan S.N. Iz istorii Sredney Azii i Irana VII-XII vekov. M., 1960.
  - 40. Forobiy. "Risola at-taxsil as-saodat". "Majmu-ar rasoil". O'zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, inv.№ 2865.
  - 41. Forobiy. Kitob tahsil as-saodat. X.aydarobod.1927.
  - 42. Xayrullayev M. M. i Sharipov A. D. Abdallax Xorezmi. V kn.: Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane. –T.: Fan, 1976. –S. 93.
  - 43. Xayrullayev M.M. Forobiy va uning falsafiy risolalari. T., "Fan", 1963.
  - 44. Sharipov A. Beruniyning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari. T., "Fan", 1972.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT**

### **MATERIALLARI 1–AMALIY**

#### **MASHG'ULOT.**

#### **MAVZU: MARKAZIY OSIYODA ISLOM IMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

1. Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi va rivoji.
2. An'anaviy ilmlar taraqqiyoti.
3. Islomiy ilmlar rivoji.
4. Kalom ilmining vujudga kelishi.
5. Mu'tazila ta'limoti.
6. Kalomning Abul-Hasan al-Ash'ariy maktabi.
7. Moturidiya maktabi.

**Mavzuning o'quv maqsadi:** Tinglovchilarda o'rta asrlarda vujudga kelgan kalom ilmi, uning paydo bo'lish sabablari va vakillari, asosiy bahs- mavzulari hamda maktablari haqida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, tinglovchilarda ikki yirik kalom maktablari bo'lgan ash'ariya va moturidiya ta'limotlarini qiyosiy tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish malakalarni rivojlantirish.

**Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar**

1. Islom qanday diniy ta’limot?
2. Islomiy ilmlar deganda qaysi ilmlarni tushunasiz?
3. Fiqh va kalom nimani o‘rganadi?
4. Markaziy osiyolik eng yirik muhaddislardan kimlarni bilasiz?
5. Hadis nima?
6. Islomiy va an’anaviy ilmlar o‘rtasidagi aloqadorlik nimada?
7. Nima uchun islomiy ilmlarning eng zabardast vakillarining aksariyati Movarounnahr va Xurosandan yetishib chiqqan edi?
8. “Hadis ilmida amir al-mo‘minin”, degan laqabga sazovor bo‘lgan movarounnahrlik muhaddis kim edi?
9. Kalom ilmi nima?
10. Kalom ilmining vujudga kelishidagi asosiy omillarni bilasizmi?
11. Mu’taziliylar kimlar edi?
12. Mu’taziliylar uchun bilihning birlamchi manbai nima edi?
13. Kalom maktablaridan qaysilarini bilasiz?
14. Ash’ariy ta’limotiga ko‘ra, insonda iroda erkinligi bormi?
15. Moturidiya va ash’ariya ta’limotlarida qanday tafovutlar bor?
16. Sizningcha, qaysi diniy-falsafiy oqimning qarashlarida ko‘proq falsafiy mushohadaga yo‘l ochilgan edi?

**2. Topshiriq:** “Markaziy Osiyoda Islom ilmlarining rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring.

### 2–amaliy mashg‘ulot:

**MAVZU: MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY, AHMAD FARG‘ONIY, ABU ABDULLOH AL-XORAZMIYNING tabiiy ilmlar rivojiga qo‘shgan hissasi**

**Maqsad:** Tinglovchilarda o‘rta asrlarda yashab ijod etgan vatandoshlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg‘oniylarning ilmiy merosi hamda ularning jahon ilmi-fani taraqqiyotiga qo‘shgan salmoqli hissalari haqida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, tinglovchilarda ikki yirik mutafakkirning ijodini qiyosiy tahlil asosida o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish malakalarni rivojlantirish.

Reja:

1. Qadimgi yunon falsafasining Iskandariya va Suriya falsafasiga ta’siri.
2. Ummaviy xalifalar davridagi ilmiy tarjimachilik.

3. Abbosiy xalifalar (Ma'mun) davridagi ma'rifatchilik.
4. Al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.
5. Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy qarashlari.
6. Ahmad al-Farg'oniyning ilmiy merosi.
7. Abu Hayyon Tavhidiy dunyoqarashi.
8. Abu Ali Miskaveyh.
9. Yahyo ibn Adiyning axloqiy qarashlari.
10. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning falsafiy qarashlari.
11. Ibn Ravandiy va mu'tazila e'tiqodi. Ilohiyotga doir bahslar. Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi.
12. Roziyning hayoti va ilmiy faoliyati.
13. Roziy asarlari.
14. Roziyning falsafiy qarashlari.

### **Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar**

1. Islom falsafasiga qaysi xalqlar dunyoqarashlari o'z ta'sirini ko'rsatdi?
2. Qadimgi yunon falsafasi qanday qilib, arab-musulmon dunyosiga kirib keldi?
3. Bu mavzudagi eng qadimgi arab tilidagi manbani bilasizmi?
4. Yunon falsafasini o'rganish markazlari bo'lgan shaharlar qaysilar edi?
5. "Kalila va Dimna" asarining muallifi kim edi?
6. "Almagest" va "Geometriya usuli" asarlari-chi?
7. Abbosiylar davrida ilm-fanning gullab-yashnashiga nimalar sabab bo'lgan edi?
8. Yuhanno ibn Mosul qaysi asarni tarjima qilgan edi?
9. Vatandoshimiz o'rta asr mutafakkiri Al-Xorazmiy jahon ilm-fani ravnaqiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
10. Al-Xorazmiyning shoh asari nima deb nomlanadi?
11. Usturlob nima?
12. Xorazmiyning "Zij" asarida nechta jadval mavjud?
13. Xorazmiyning geografiyaga oid asarini bilasizmi?
14. Al-Farg'oniy merosini o'rganishdagi eng dastlabki manba nima?
15. Al-Farg'oniyning yana qanday asarlarini bilasiz?
16. Al-Xorazmiy va al-Farg'oniylarni o'rganish Mustaqil O'zbekiston istiqboli uchun nimalarni kafolatlaydi?
17. Islom dunyosiga falsafiy madaniyatning yoyilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
18. Abu Hayyon Tavhidiyning eng muhim asari nima to'g'risida edi?
19. Tavhidiy nima uchun zamondosh faylasuflarni tanqid ostiga oldi?
20. Miskaveyh qaysi sohalarda ijod qilgan?
21. Miskaveyh aqliy ilmlarni qay tartibda joylashtiradi?

22. Yahyo ibn Adiyning “Fazilatlar va razolatlar” tizimiga yana qanday kategoriyalarni kiritish mumkin?
23. “Tahzib ul-axloq” asarining muallifi kim?
24. Yuqoridagi mutafakkirlardan qay birining g‘oyalari Mustaqil O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi, deb o‘ylaysiz?
25. Roziyning arab-musulmon falsafasida tutgan o‘rni qanday?
26. Roziy qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan?
27. Roziyning shoh asari nima deb nomlangan?
28. Roziyning borliq falsafasida olamning asosida nima yotadi?
29. Uning borliq to‘g‘risidagi qarashlari qaysi g‘arb faylasufi ta’limotiga yaqinroq?
30. Roziyning axloqqa oid qarashlari uning qaysi asarida o‘z ifodasini topgan?
31. Roziyning falsafiy dunyoqarashiga qaysi faylasuflarning ta’siri katta bo‘lgan?
32. Nima uchun Roziy Abu Hotam Roziy va Nosir Hisravlar tomonidan kofirlikda ayblangan?

**2. Topshriq: “MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY, AHMAD FARG‘ONIY, ABU ABDULLOH AL-XORAZMIYNING tabiiy ilmlar rivojiga qo‘shtigan hissasi”** mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring.

### **3-amaliy mashg‘ulot:**

#### **MAVZU: IBN MISKA VAYXNING FALSAFIY BILIMLAR RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

**Maqsad:** Tinglovchilarda arab-musulmon olamida birinchi sof faylasuf maqomiga ega bo‘lgan Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning faoliyati, uning olamning besh asosi to‘g‘risidagi ta’limoti, shuningdek, Ibn Ravandiyning tanqidiy qarashlari to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, Al-Kindiy va Arastularning borliq haqidagi qarashlarini qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Tinglovchilarda Sharq tabiatshunosi va faylasufi Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziyning faoliyati, uning borliq va axloqqa oid qarashlari to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, uning ushbu qarashlarini Pifagor va Aflatun ta’limotlari bilan qiyosiy tahlil qilish malakalarni rivojlantirish.

### **Reja:**

1. Abu Hayyon Tavhidiy dunyoqarashi.
2. Abu Ali Miskaveyh.

3. Yahyo ibn Adiyning axloqiy qarashlari.
4. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq al-Kindiyning falsafiy qarashlari.
5. Ibn Ravandiy va mu'tazila e'tiqodi. Ilohiyotga doir bahslar.
6. Ibn Ravandiyning tanqidiy dunyoqarashi.
7. Roziyning hayoti va ilmiy faoliyati.
8. Roziy asarlari.
9. Roziyning falsafiy qarashlari

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar**

1. Islom falsafasiga qaysi xalqlar dunyoqarashlari o‘z ta’sirini ko‘rsatdi ?
2. Qadimgi yunon falsafasi qanday qilib, arab-musulmon dunyosiga kirib keldi?
3. Bu mavzudagi eng qadimgi arab tilidagi manbani bilasizmi?
4. Yunon falsafasini o‘rganish markazlari bo‘lgan shaharlar qaysilar edi?
5. “Kalila va Dimna” asarining muallifi kim edi?
6. “Almagest” va “Geometriya usuli” asarlari-chi?
7. Abbosiylar davrida ilm-fanning gullab-yashnashiga nimalar sabab bo‘lgan edi?
8. Yuhanno ibn Mosul qaysi asarni tarjima qilgan edi?
9. Vatandoshimiz o‘rta asr mutafakkiri Al-Xorazmiy jahon ilm-fani ravnaqiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
10. Al-Xorazmiyning shoh asari nima deb nomlanadi?
11. Usturlob nima?
12. Xorazmiyning “Zij” asarida nechta jadval mavjud?
13. Xorazmiyning geografiyaga oid asarini bilasizmi?
14. Al-Farg‘oniy merosini o‘rganishdagi eng dastlabki manba nima?
15. Al-Farg‘oniyning yana qanday asarlarini bilasiz?
16. Al-Xorazmiy va al-Farg‘oniylarni o‘rganish Mustaqil O‘zbekiston istiqboli uchun nimalarni kafolatlaydi?
17. Islom dunyosiga falsafiy madaniyatning yoyilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
18. Abu Hayyon Tavhidiyning eng muhim asari nima to‘g‘risida edi?
19. Tavhidiy nima uchun zamondosh faylasuflarni tanqid ostiga oldi?
20. Miskaveyh qaysi sohalarda ijod qilgan?
21. Miskaveyh aqliy ilmlarni qay tartibda joylashtiradi?
22. Yahyo ibn Adiyning “Fazilatlar va razolatlar” tizimiga yana qanday kategoriyalarni kiritish mumkin?
23. “Tahzib ul-axloq” asarining muallifi kim?
24. Yuqoridagi mutafakkirlardan qay birining g‘oyalari Mustaqil O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi, deb o‘ylaysiz?
25. Roziyning arab-musulmon falsafasida tutgan o‘rni qanday?

26. Roziy qaysi fanlarni chuqur o‘rgangan?
27. Roziyning shoh asari nima deb nomlangan?
28. Roziyning borliq falsafasida olamning asosida nima yotadi? 29. Uning borliq to‘g‘risidagi qarashlari qaysi g‘arb faylasufi ta’limotiga yaqinroq?
30. Roziyning axloqqa oid qarashlari uning qaysi asarida o‘z ifodasini topgan?
31. Roziyning falsafiy dunyoqarashiga qaysi faylasuflarning ta’siri katta bo‘lgan?
32. Nima uchun Roziy Abu Hotam Roziy va Nosir Hisravlar tomonidan kofirlikda ayblangan?

**2. Topshiriq: “IBN MISKAVAYXNING FALSAFIY bilimlar rivojida tutgan o‘rni” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring.**

#### **4—amaliy mashg‘ulot:**

### **MAVZU: XV-XVI ASRLARDA MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA O‘RTA SHARQ MAMLAKATLARIDA MADANIY YUKSALISH, MADANIY QADRIYATLARNING RIVOJLANISHI**

**Maqsad:** Tinglovchilarda XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti haqida, Sa’duddin Taftazoniy va Mir Said Sharif Jurjoniylarning falsafiy va mantiqiy qarashlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish, shuningdek, tinglovchilarda ushbu ikki mutafakkirlarning ma’naviy merosini falsafiy mushohada qilish va nazariy hamda amaliy xulosalar chiqarish malakalarni rivojlantirish

#### **Reja:**

1. Sa’duddin ibn Umar Taftazoniyning                   falsafiy qarashlari.
2. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning                   falsafiy qarashlari va mantig‘i.

#### **Nazariy ma’lumotlar:**

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan alloma Sa’duddin Taftazoniy - Ashxobod yaqinidagi Niso shahri atrofidagi Taftazon qishlog‘ida tug‘ildi. Temur o‘z markaziy davlatini tuzguncha bo‘lgan feodal urushlar natijasidagi notinchliklar yosh Taftazoniyni Xuroson shaharlari bo‘ylab sargardon yurishga majbur etdi. 16 yoshli Sa’duddin ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san’ati va mantiq sohalarini mukammal egallaydi. Bu fanlarni o‘z davrining mashhur olimlari bo‘lgan Aziddin Ijiy va Qutbiddin Roziy at-Taxtoniylardan o‘rganadi. Taftazoniyning 16

yoshida yozgan birinchi ilmiy asari unga shuhrat olib keldi va uning madrasada mudarrislik qilish huquqini qo‘lga kiritishiga sabab bo‘ldi.

1340 yildan 1372 yillar ichida Taftazoniy G‘ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi madrasalarda dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozondi. Ayniqsa mantiq, nutq san’ati, arab tili grammatikasi va ilohiyot sohalarida unga teng keladigan olim kam topilar edi<sup>42</sup>. Uning zamondoshi mashhur arab tarixchisi Ibn Xaldun Taftazoniy haqida quyidagilarni yozgan edi: “Movarounnahrdan chiqqan quyoshning nuri arab mamlakatlari va Ispaniyagacha yetib kelmoqda”<sup>43</sup>.

Taftazoniyning shuhrati o‘z poytaxti Samarqandga eng mashhur olimlar, hunarmandlar va ustalarni to‘playotgan Amir Temurga ham yetib boradi. U Taftazoniyni Samarqandga chaqirtiradi. Taftazoniy umrining oxirigacha saroyda yashaydi va 1392 yilning 12 avgustida vafot etadi.

Taftazoniyning nazariy merosi o‘rta asrlar fanining barcha sohalarini o‘z ichiga oladi. Qur‘on tafsiridan boshqa asarlari arab tilida yozilgan bo‘lib, ular ichida mantiq, nutq san’ati va arab tili grammatikasiga oid risolalari alohida o‘rin tutadi. Bu risolalardan XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning ikkinchi yarmigacha Movarounnahr va uning atrofidagi o‘lkalar madrasalarida o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanilgan. Mashhur sharqshunos YE.E.Bertels o‘z tadqiqotlarida fors she’riyatining buyuk klassigi Abdurahmon Jomiy she’riyat va nutq san’atini Sa’duddin Taftazoniy asarlaridan o‘rganganligini ko‘rsatib o‘tadi.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar yozgan bo‘lib, bizgacha yetib kelgan asarlaridan diqqatga sazovorlari quyidagilar (1-ilova): “Tahzib al-mantiq val-kalom” (“Mantiq va kalomga sayqal berish”), “As-sa’diya” (XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan Kotibiyning mantiqa oid “Ash-shamsiya” risolasiga yozilgan sharh), “Al-mutavvol” (Nutq san’atiga oid “Keng talqin”), “Muxtasar al-maoniy” (riterikaga oid “Qisqacha ma’nolar”), “Al- irshod al-xodiy” (arab tili grammatikasiga oid “Yo‘l boshlovchi rahbar”), “Al-maqosid at-tolibin” (falsafa va kalomga oid “Tolibi ilmlarning maqsadlari”), “Risola fi zavoye al-musallas” (“Uch burchakning burchaklari haqida risola”). Bulardan tashqari Taftazoniy o‘zidan oldingi o‘tgan mutafakkirlarning asarlariga ko‘plab sharhlar va hoshiyalar yozgan.

Taftazoniy dunyoqarashidagi diqqatga sazovor masalalardan biri qazo va qadar hamda iroda erkinligidir. Ma’lumki, iroda erkinligi masalasida ko‘plab faylasuflar har xil fikrlar bayon etishgan va inson o‘z xulq- atvorida erkinmi, ya’ni ixtiyori o‘z qo‘lidami, degan savolga javob topishga intilganlar.

Sa’duddin Taftazoniy o‘zining “Tahzib al-mantiq val-kalom” asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to‘xtaladi. Uning fikricha, har qanday olijanoblik va xayrli ishlar o‘z tabiatiga ko‘ra, xudoning mohiyatidan kelib chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida

<sup>42</sup> Qarang: Sadixon Murtazoyev. Sa’duddin Taftazoniy asarlarida dunyoqarash, bilish nazariyasi va mantiqiy masalalarning yoritilishi. Avtoreferat. -T.; 1975. –B.5.

<sup>43</sup> Ibn Xaldun. Muqaddima. –Qohira. 1995. 1-jild. –B.545.

xayr va sharofatning yaratganligi sababidan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo‘lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgandir. Shunday qilib, uning fikricha, xudo – o‘z bandalariga ikki yo‘lni “taklif” etadi, ya’ni sharafla, xayrli faoliyat ko‘rsatishni yoki nomatlub mashg‘ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa, jazoga tortilishni keltirib chiqaradi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, xudo tomonidan ko‘proq insonlarga xayrli ishlar qilish, g‘ayri shar’iy ishlar kamroq bo‘lishi ta’kidlanadi. Qaysi yo‘lni tanlash insonning o‘z irodasiga bog‘liqdir. Shuning uchun xudo yomon xulq-atvorli insonlarni jazolaydi. Yomon xulq-atvorni qoralash xudoning irodasiga qarshi borish emas, chunki yomonlikning yer yuzida mavjudligi insonlarni poklikka chorlovchi sinovdir.

Bilish nazariyasida Taftazoniyning qarashlari Ibn Sinonikidan farq qiladi. Masalan, Ibn Sino narsa, hodisalar haqidagi ma’lumotlarni bilim deb bilsa, Taftazoniy ularni alohida his-tuyg‘u va bilim o‘rtasidagi vositaviy bosqich, deb tushunadi. Uningcha, ashyolar va hodisalar mavjudligi tufayli ular uyg‘otgan his-tuyg‘u shakllaridan bilim yuzaga keladi. Chunki hissiyot moddadan uning zaruriy sifatlari va aloqalari bilan birgalikda tashqi qiyofasinigina qabul qilib oladi. Shu sababdan mutafakkirning fikricha, hissiy tasavvurga ega bo‘lish uchun moddaning bo‘lishligi shartdir. Lekin aqliy, mantiqiy bilish esa, moddiy asosdan ancha uzoqlashgan bo‘lib, hissiy bilimlarga qaraganda yuqoriroq bosqichda hosil bo‘ladi.

Taftazoniy fikricha, mantiq tafakkurdagi xatoliklardan xalos qiladigan vosita bo‘lib, yangi bilimlar hosil qilish zaminidir<sup>44</sup>.

Taftazoniy fikricha, mantiqiy bilish shakllari tasavvur va tasdiqdir. Biror ashyo yoki hodisani tasavvur etish va uning to‘g‘risida hukm chiqarishda asosiy o‘rinni til bajaradi. Ong va uning belgisi bo‘lgan nutq bir-biri bilan bevosita bog‘langandir. Biror ashyo yoki hodisaning belgisi bo‘lgan so‘zlar, biror bir mazmun tufayligina qandaydir ma’no kasb etadi. So‘zlar va ularning har xil turlarini tilshunoslik fani o‘rganadi, mantiq esa, muayyan mazmunga aloqador munosabatdagi belgilari o‘rnini aniqlovchi so‘zlarni o‘rganadi. Shunday qilib, Taftazoniy fikricha, mantiq fani mavhum mantiqiy ong bilan bog‘langan bo‘lib, tushuncha va hukmni ifodalovchi so‘zlar va gaplarni tahlil etadi.

Aql quroli orqali ashyolarni aks ettiradigan tushunchalarini ta’riflab, Taftazoniy o‘z oldiga shunday savol qo‘yadi: tushunchalar qanday kelib chiqadilar va shakllanadilar? Taftazoniy aqlning tahliliy-xulosaviy qobiliyati (tahlilot) va shuuriy iste’dodi (mafhumot) tushunchalar shakllanishi uchun asosiy yo‘l deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha: “Faqat tahlilot va mafhumot vositasidagina ashyolar haqida muayyan tushunchalar hosil etish mumkin”<sup>45</sup>.

<sup>44</sup> Qarang: Taqrrib al-marom fi tahzib al-kalom. 2-qism, –B.65 (arab tilida, qo‘lyozma).

<sup>45</sup> Ma’naviyat yulduzлari. –B.165.

Taftazoniy o‘z falsafiy qarashlarida tabiat hodisalari o‘rtasida sabab- oqibat munosabatlari mavjudligiga shubha qilmay, borliqning ana shunday munosabatlarini diqqat bilan tahlil etib, sabab va oqibatning muayyan turlarini ajratib ko‘rsatadi. “Sabab – bu shunday narsaki, ashyoning mavjud bo‘lishi unga bog‘liqidir. Sabab ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatiga ko‘chib o‘tsa, unda ichki sabab namoyon bo‘lgan bo‘ladi, agarda buning aksi bo‘lsa, unda tashqi sabab o‘zligini ko‘rsatgan bo‘ladi”<sup>46</sup>.

Taftazoniyning ilmiy merosi Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari ijtimoiy- siyosiy tafakkuri tarixida munosib o‘rin tutgan qadimgi yunon faylasuf va mantiqshunoslari maktabiga mansubdir. Ammo eramizdan oldingi ilmiy yutuqlar bilan chegaralanmasdan, IX-X asrlardagi Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy yuksakliklariga tayangan holda uni rivojlantirgani va yangi g‘oyalar bilan boyitganligi diqqatga sazovordir.

Taftazoniy Temur davridagi Samarqand ilmiy muhitida o‘sha zamon olimlari bilan birgalikda samarali ijod etib, keyinchalik jahonshumul ahamiyat kasb etgan Ulug‘bek maktabini vujudga kelishiga zamin hozirlagan mutafakkirlardan biri bo‘lib tarixda qoldi. U islam falsafasi bo‘lgan kalomga mantiqiy xulosalarni tatbiq etib, uni kuchaytirdi va ilohiyotni ham jozibali fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shti. Uning asarlarining ilmiy qimmati hozirda ham o‘z kuchini yo‘qtgani yo‘q. Taftazoniyning ilmiy merosini o‘rganish tafakkurimiz tarixining zarhal sahifalarini boyitish imkonini beradi.

### *Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning falsafiy qarashlari va mantig‘i (1339-1413)*

Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandning shon-shuhratini oshirish va uni jahon ilmiy markazlaridan biriga aylantirish niyatida o‘z poytaxtiga to‘plagan olimlaridan biri Mir Sayyid Sharif Jurjoniyidir. U 1387 yili Sheruz fath etilganidan keyin, u yerdagi mashhur kishilar qatorida Samarqandga jo‘natilgan. Jurjoniy deyarli 20 yil davomida Samarqandda barakali ijod qilib, faqat Temur vafotidan keyingina Sheruzga qaytib, 1413 yili o‘sha yerda vafot etdi.

Ilmiy adabiyotlarga Mir Sayyid Sharif nomi bilan kirgan Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayniy Jurjoniy 1339 yilda Eronning Gurgon (arabcha - Jurjon) viloyati markazi bo‘lgan Astrobod shahri yaqinidagi Tog‘u qishlog‘ida tug‘ildi.

Jurjoniy yoshlik yillaridan Sharqda mavjud bo‘lgan fanlarning barcha turlari bilan shug‘ullandi. Islam falsafasi va kalom, mantiq, til masalalaridan tashqari tabiatshunoslikka doir sohalarni qunt bilan o‘rganib, ular haqida katta ilmiy asarlar yozib qoldirdi.

---

<sup>46</sup> O‘sha joyda, –B.164.

1365 yili Jurjoniy Hirotgash faylasuf Qutbiddin Muhammad ar-Roziy at-Taxtoniydan ta’lim olish uchun boradi. Ammo Taxtoniy o‘zining qarib qolganligini aytib, Misrdagi shogirdi Muborakshoh oldiga borishni maslahat beradi. Lekin Jurjoniy 1368 yilgacha Hirotda qoladi. So‘ngra turk faylasufi Muhammad Oqsaroiydan ta’lim olish uchun Qoramон shahriga jo‘naydi. Muhammad Oqsaroiyning shuhrati va uning asarlari Jurjoniy e’tiborini jalgan bo‘lib, u mashhur faylasuf va mantiqshunos bo‘lib yetishgan Oqsaroiyning shogirdi Muhammad Mullo Fanoriy bilan uchrashib, do‘s tutinadi va birgalikda 1370 yilda Misrga jo‘nashadi. Jurjoniy Qohirada 4 yil davomida mashhur mantiqshunos Muborakshoh va Akmaliddin al-Bobartiyalar ma’ruzalarini tinglab, o‘z saviyasini oshirgach, 1374 yilda Istambulda ilmiy izlanishlarini davom ettiradi. U yerdan Vataniga qaytib, 1387 yilgacha Sheroz madrasalarida dars beradi. So‘ng Samarqandda madrasalarda dars berish bilan birga Temur saroyidagi ilmiy bahslarda faol ishtirok etadi. Bu yerda u ilmu fanning barcha sohalariga bag‘ishlangan bir qator risolalar, o‘tmish mutafakkirlarining asarlariga sharhlar yozadi.

Jurjoniy 50 dan ortiq asar yozgan bo‘lib, ular fanning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan edi. Ammo Mirzo Ulug‘bekka bevosita ta’sir etgani, shubhasiz uning XII-XIII asrlarda Xorazmda yashab o‘tgan Mahmud al-Chag‘miniyning astronomiyaga oid asarlariga yozgan “Sharhe mulahhas al-haya” (“Astronomiyaga oid saylanmaga sharh”) va Nasriddin Tusiy asariga bag‘ishlangan “Sharhe tazkiratul Nasiriyat” (“Astronomiya haqida eslatmaga sharh”) asarlaridir.

Jurjoniy bilih nazariyasi va mantiqqa doir “At-ta’rifot” (“Ta’riflar”), “Usuli mantiqiya” (“Mantiq usuli”) va ilmiy babs faniga bag‘ishlangan “Odob ul-munozara” (“Munozara olib borishning qoidalari haqida risola”) kabi arab tilida yozilgan asarlarning muallifi hamdir. Bundan tashqari Jurjoniyning fors tilida yozilgan mantiqqa oid bir necha asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Bulardan “Sug‘ro” (“Kichik dalil bo‘la oladigan hukm”), “Kubro” (“Katta dalil bo‘la oladigan hukm”), “Avsat dar mantiq” (“Mantiqda o‘rtta xulosa”) va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Uning “Sharhe faroize Sarojiya” (“Meros bo‘lish majburiyatlarining Sarojiy ta’rifiga sharh”) asari huquqshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, faqih Sajovandiy asarlariga javob tariqasida yozilgan.

Jurjoniy XIV asr faylasufi Ezidin Abdurahmon al-Ijiy (1300- 1356)ning “Mavoqif fi ilm al-kalom” (“Kalom ilmidagi manzillar”) asariga yozgan “Sharhe mavoqif fi ilm al-kalom” sharhi uning zamondoshlari va undan keyingi avlod olimlari uchun falsafa va mantiq bo‘yicha o‘ziga xos qomus maqomiga ega bo‘ldi.

Sharhlardan tashqari Jurjoniy juda ko‘p falsafiy asarlarga hoshiyalar yozgan. Uning Abu Ali ibn Sinoning “Ishorat” (“Ko‘rsatmalar”) asariga yozgan sharhi, Nasiridin Tusiyning “Tajvid” (“Abstraksiya”) asariga sharh yozgan shayx Shamsuddin Mahmud Isfahoniy (1294-1349)ga javob tariqasida yozilgan hoshiyasi diqqatga sazovordir.

Jurjoni y dunyoqarashi, undan oldin o'tgan salaflarinidek, o'rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi, borliq haqidagi ta'limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash ta'limoti, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoni aqidasiga xos bo'lган narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Besh bobdan iborat "Oinaye gitinamo" ("Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu") risolasining birinchi bobini "vojib ul-vujud" va "mumkin ul-vujud" mayjud ekanligini asoslashga bag'ishlaydi. Jurjoni unga shunday ta'rif beradi: "Yo'q bo'lishi mumkin bo'lмаган, bor bo'lishi esa, zarur bo'lган narsa vojib ul-vujud, deb ataladi. Masalan, Xoliqning o'zligi kabi tushuncha. Borlig'i ham, yo'qligi ham zarur bo'lмаган narsa esa, mumkin ul-vujud, deb ataladi"<sup>47</sup>.

Jurjoni fikricha, vojib ul-vujud xudo bo'lib, mumkin ul-vujud moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya'ni xudoning borligini tan oladi. Uningcha, mumkin ul-vujud o'zining bor bo'lishi uchun qandaydir tarzda bo'lsa ham, biror-bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror-bir narsa tufayli, ya'ni birinchi sabab mohiyatiga ko'ra, mumkin ul-vujud darajasiga ko'tariladi.

Jurjoni fikricha, hamma jismlar bir-biriga bo'lган o'zaro munosabatda sabab-oqibat nisbatida bo'ladilar. "Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu" risolasida u shunday yozadi: "Bor bo'lishga imkonibor narsa ikki tarkibiy qismidan – substansiya va aksidensiyadan, ya'ni tub mohiyat va tasodifiy holdan yoki hodisadan tashkil topadi. Agar mavjud bo'lishga imkonibor narsa o'z mavjudligi uchun joyga ehtiyoj sezmasa, unda uni tub mohiyat deb, agarda unga ehtiyoj sezsa, hodisa deb ataladi. Tub mohiyat besh xil bo'lishi mumkin. Agarda biror-bir tub mohiyat, boshqa joyda biror narsa o'rnida qaror topgan bo'lsa, u joylashgan o'sha joy modda deb, holat esa, – shakl, deb ataladi. Agar u o'z ichiga holat va joyni olgan bo'lsa, u jism, deb nomlanadi. Agar tub mohiyat bu aytilgan uch narsani o'z ichiga olmasa, u ayiruvchi substansiya, deb ataladi. Agarda shu ayiruvchi tub mohiyat jismga ega bo'lsa, u holda uning o'zgaruvchi qismi ruh deb ataladi. Bu jismlardagi o'zgarmaydigan narsa aql deb ataladi. Agarda ushbu aql bevosita vojib ul-vujuddan kelib chiqqan bo'lsa, u boshlang'ich ong yoki umumiy aql, deb ataladi"<sup>48</sup>.

Jurjoni tabiatdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y beradi. Jurjoni dunyoqarashiga xos xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta'riflashidir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur, ya'ni olov, havo,

<sup>47</sup> O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozmalar fondi: "Oyinaye gitinamo", 2984- raqamli qo'lyozma, 1-sahifa (fors tilida).

<sup>48</sup> O'sha joyda.

suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya’ni metallar, o’simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to‘rt unsurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. To‘rt unsur doimo harakatda ekanligidan o‘zgaruvchan bo‘lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Havo suvga, suv tuproqqa va hokazo.

Jurjoniy falsafasida moddiylik g‘oyalarigina emas, balki dialektik yondoshuv ham mavjud. Uning fikricha, moddiylikdan xoli bo‘lgan bo‘sh joy yo‘q. Bu haqda u shunday yozadi: “Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog‘lanib turgan narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Har bir atrofdagi dunyo, o‘zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo‘shliqning bo‘lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo‘lakchalarning tarkibiy majmuasi olam, deb ataladi”<sup>49</sup>.

Mir Sayyid Sharif Jurjoniy mantiq ilmiga salmoqli hissa qo‘shdi. U Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari mantiqiy merosining barcha oqimlarini tahlil etib, ularni yanada rivojlantirdi.

XV-XVI asrlar davomida mantiq ilmini o‘rganish va o‘qitish ishlari XIII asrda yozilgan darsliklarga XIV asrda yozilgan sharhlar, ayniqsa, mashhur mantiqshunos at-Taxtoniy (1290-1365), uning shogirdi Ibn Muborakshoh (1310-1375), Samarqandda ijod qilgan uning ikki izdoshi – Taftazoniy (1322-1392), Jurjoniy tomonidan yozilgan sharh va hoshiyalar asosida olib borildi. Bu davrda arab tiliga nisbatan fors tilida ko‘proq asarlar yozildi. Mohiyat jihatdan mantiq ilmining falsafa va ilohiyot sohasidagi tadqiqotlarda ishlatilish jarayoni ko‘paydi. Jurjoniy o‘z ijodida mantiqni falsafadan ajratmagan holda, uni ko‘proq huquq va til sohalarida qo‘llanilishini ta’minladi. Uning barakali ijodi tufayli shu davrdan boshlab, islom madrasalarida mantiqni o‘qitish huquq va til fanlari bilan bog‘liq holda olib borildi. Natijada mantiq ilmiga islom aqidalariga xos bo‘lgan “begona ta’limot”, deb g‘araz bilan qarash, asta-sekin barham topa boshladи.

Jurjoniyning ta’kidlashicha, nazariy bilimlar hayotiy tajribada hosil qilingan boshlang‘ich bilimlar va ular to‘g‘risida fikrlash yo‘li bilan shakllanadi. Bunday fikrlash jarayonini u xulosa, deb ataydi va uning uch turini ko‘rsatib o‘tadi (2- ilova). Bular: qiyos (sillogizm), isteqro (induksiya – bo‘lakdan butunga tomon hukm yuritish) va hads (analogiya - o‘xshatish). Bulardan qiyos xulosaning bosh turi hisoblanib, nazariy bilimlar hosil qilishning asosiy vositasi bo‘lib maydonga chiqadi.

<sup>49</sup> Jurjoniy. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag‘miniy. O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo‘lyozma, 225-sahifa (arab tilida).

Isteqro (induksiya) tushunchasi ostida Jurjoniy shunday xulosani nazarda tutadiki, unda dastlabki xususiy shartlar asosida umumiy natija chiqariladi. U ikki xil isteqroni, ya’ni to‘la va to‘la bo‘lmanan isteqroni ko‘rsatib o‘tadi.

To‘la isteqroda har bir bo‘lakdagи biror-bir sifat mavjudligiga asos- lanib, ana shunday sifat xususiyati umumiy butunlikda ham bor ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

To‘la bo‘lmanan isteqro shunday xulosadirki, umumiy butun bo‘lgan narsaning ba’zi bir qismlarida mavjud bo‘lgan biror-bir xususiyatdan kelib chiqib, shunday xususiyat butunda ham mavjud ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Jurjoniy to‘la bo‘lmanan induksiya faqat taxminiy mulohazagagina olib keladi, deb o‘yaydi va uning ta’kidlashicha, biz olovning ayrim xususiy holatlarini kuzatsak, har qanday olov issiqlik chiqaradi, degan ayrim xususiyatga ega bo‘lgan bilimdan, ya’ni deduktiv (butundan bo‘lakka o‘tadigan) holatga o‘tadigan xulosa kelib chiqishi mumkin<sup>50</sup>. Shu bilan birga uning ta’kidlashicha, induktiv yo‘l bilan hosil qilingan bilimlar hamma vaqt ham haqiqatga to‘g‘ri kelavermaydi. Chunki, inson tajribasi hech vaqt to‘la mukammallikni bermaydi.

Jurjoniyning induktiv va deduktiv xulosalar haqidagi fikri Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari fikrini eslatadi. Ammo bu fikrga noyob xulosalar qo‘shilib, takomillashtirilgan.

Jurjoniyning ilmiy faoliyati tufayli mantiq Temuriylar davrida inson bilimlarining barchasiga qo‘llaniladigan qoida va mezon qonuniga aylandi. U har bir yuritilayotgan hukmning to‘g‘riligini tortuvchi fanlarning toshu tarozisi sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada tez orada vujudga kelgan Ulug‘bek rasadxonasing ilmiy tadqiqotlarida keng qo‘llanildi.

Jurjonyi Ulug‘bekni madrasada bevosita o‘qitibgina qolmay, uning Akademiyasini vujudga kelishiga ham katta hissa qo‘shdi. Chunki, uning shogirdlari bu ilmiy markazning negizini tashkil etar edilar. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to‘laligicha o‘rganish mustaqil Respublikamiz ma’naviyatiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilishi shubhasizdir.

**2. Topshiriq:** “XV-XVI ASRLARDA MARKAZIY OSIYO, YAQIN VA O‘RTA SHARQ MAMLAKATLARIDA MADANIY YUKSALISH, MADANIY QADRIYATLARNING RIVOJLANISHI” mavzusini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini tanlang va ma’ruza, seminar mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtiring.

---

<sup>50</sup> Qarang: Mir Sayyid Sharif Jurjoniy. At-ta’rifot. –Istambul: Dor ul-tabaote omera”. 1818 y., –B.11. (arab tilida)

## **V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

### **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR**

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan oliy ta’lim muassasalarda o‘zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. TDSHU “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida Sharq falsafasi va madaniyati tarixiga doir o‘quv dasturlar va darslik, qo‘llanmalar bilan tanishish va ko‘rish.

“XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalish, madaniy qadriyatlarning rivojlanishi” modulga tegishli darslarni ilg‘or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqarish masalalari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy ta’lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

## VI. GLOSSARIY

<b>Atamaningingli ztilidanomlanis hi</b>	<b>Atamaningrustilidan omlanishi</b>	<b>Atamaningo‘zbektilida nomlanishi</b>	<b>Atamaningma’nosi</b>
Averoism	Averroizm	Averroizm	Ibn Rushd falsafiy merosi ta’sirida G‘arbda vujudga kelgan falsafiy yo‘nalish.
Practical philosophy	Prakticheskaya filosofiya	Amaliy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko‘ra, falsafaning ikkinchi qismi bo‘lib, u siyosat, huquq, uy ishlarini o‘rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya’ni etikadan iboratdir.
Authocracy	Avtokratiya	Avtokratiya	(yunon. – autos – o‘zim va cratos – hokimiyat so‘zları birikmasidan tashkil topgan) – alohida sub’ekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan, nazorat qilinmaydigan va uni to‘liq egallab olgan holda boshqarish
Aggression	Agressiya	Agressiya	(lot. aggress – hujum qilmoq). Hozirgi kunda A. so‘zi inson faoliyatining juda ko‘p qirralarini ifodalaydi: tahdid qilish unsurlaridan tortib, to jismoniy ta’sirgacha bo‘lgan faoliyatni o‘z ichiga oladi
Acacia	Akasha	Akasha	Svami Vivekananda ta’limotida olamdagи barcha narsalar kelib chiqadigan dastlabki materiY.
Anarchy	Anarxiya	Anarxiya	(yunon. anarchia – bosh – boshdoqlik, hokimiyatsizlik) – ijtimoiy – siyosiy ta’limot bo‘lib,
			shaxsni har qanday nufuzlar va turli – xil iqtisidiy, siyosat va ma’naviy ta’sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo‘lib, uni zo‘ravonlik, inqilobiy yo‘llar bilan yo‘q qilishi kerak.

An-nakhda	An-naxda	An-naxda	XIX asrning o‘rtalarida arab dunyosida boshlangan g‘oyaviy va adabiy uyg‘onishning nomlanishi. Misrda Rifoat Taxtoviy (1801-1873), Ali Muborak (1824-1893), Abdulloh Fikriy (1834-1890), Suriyada Nosif al-Ezijiy (1800-1871), Butrus al-Bo‘stoniy (1819-1888), Fransis Marrosh (1836-1873) kabi mutafakkir-olimlar ushbu oqimning vakillari hisoblanadi.
Anthropocentrism	Antropotsentrizm	Antropotsentrizm	(yunon. anthropos – inson, kentron – markaz). Bu tasavvurga ko‘ra, inson–koinot markazi bo‘lib, olamdagи barcha voqeа–hodisalar o‘zgarishning tub maqsadidir.
Aparighrakha	Aparigraxa	Aparigraxa	Jaynizmda barcha ko‘ngil istaklaridan o‘zini tiya bilish. Bu kishida lazzat uyg‘otadigan ob’ektlardan o‘zini tiyishga da’vat etadi.
Mixed nation	Smeshannaya natsiya	Aralash millat	Abul Kalom Ozod (1888–1958)ning Hindiston xalqlari dinlar va tillarning turli tumanligidan va boshqa farqlardan qat’i nazar, yakdil bo‘lishlarini maqsad qilgan konsepsiysi.
Athman	Atman	Atman	Upanishatlarda ruh kategoriyasi bo‘lib, hamma narsa ichiga kira oluvchi sub’ektiv voqelik sifatida o‘zini namoyon etadi: u – “katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong‘ilksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta’msiz, ko‘zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning ”oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo‘q...
Atheism	Ateizm	Ateizm	(yunon. theos – xudo) har qanday ilohiy ta’limotni, ilo-hiy
			kuchni rad etuvchi falsafiy oqim, dahriylik.
Akhimsa	Aximsa	Aximsa	Gandiy va jaynizm ta’limotida tirik jonga ozor yetkazishdan o‘zini tiyish asosiy tamoyili
Ethical degradation	Eticheskaya degradatsiya	Axloqiy degradatsiya	hinduizmda axloqiy normalarning buzilishi.

Ethical and enlightened government	Eticheskoye i prosveshchennoye pravitelstvo	Axloqli va ma'rifiy hukumat	Eron ma'rifatpar-vari Shams ul-Urafo tomonidan ishlab chiqilgan, diniy va milliy axloqiy qadriyatlar asosida jamiyat boshqaruvini ta'minlaydigan hukumat shakli.
Ashram	Ashram	Ashram	hinduiylikda diniy jamoa
Animism	Animizm	Animizm	ibridoiy tasavvurlardan biri bo'lib, tabiatda ruhlarning ta'siri mavjudligiga ishonish.
Arabic sciences	Arabskiye nauki	Arab ilmlari	kalom, fiqhshunoslik va hadisshunoslik kabi diniy ilmlar.
Asceticism	Asketizm	Asketizm	moddiy dunyo nozne'matlaridan voz kechib, ruhiy kamolot yo'lida uzlatga chekinishdir.
Mythological thought	Mishleniya (mifologicheskaya misl)	Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash)	insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir.
Atomism	Atomizm	Atomizm	materianing uzluksiz, diskret (dona-dona) tuzilishi haqidagi ta'limot.
Ethics	Etika	Axloq	(arab. xulq so'zining ko'pligi) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalar yig'indisi.
Teaching about eternal return	Ucheniye o vechnom vozvrashenii	Abadiy qaytish ta'limoti	Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur.
Agnositism	Agnostitsizm	Agnostitsizm	Bilishni inkor qiluvchi ta'limot.
Antinomy	Antinomiya	Antinomiya	Isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo'lgan haqiqatlar yoki qoidalar.
Apologetics	Apologetika	Apologetika	So'zning lug'aviy ma'nosi himoya qilmoq demakdir, ya'ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir.
A priori	Aprior	Aprior	Tajribagacha bo'lgan bilim.
A posteriori	Aposterior	Aposterior	Tajribadan keyingi bilim.
Association	Assotsiatsiya	Assotsiatsiya	Bilishdagi munosabat-asoslari.
Ethical rationalism	Ratsionalnaya etika	Axloqiy ratsionalizm	Bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo'ladi.

Brakhma	Braxma	Braxma	braxmanizm diniy ta'lomitiga ko'ra, yagona real dunyoviy ruh, ilohiy substansiya, hayot manbai, borliqning asosi.
Brakhmans	Braxmani	Braxmanlar	– Qadimgi Hindistonda davlat rahbarlari, ziyolilar va donishmandlardan tashkil topgan ijtimoiy qatlam.
Brakhmachary	Braxmachariya	Braxmachariya	Gandiy va jaynizm ta'lomitida ojiz-zaif xatti-harakatlarga yo'l qo'yishdan o'zini tiyish hamda insonda o'z fikru hayollari, so'zlari va harakatlarini qat'iyan idora etishi tamoyili.
Buddha	Budda	Budda	(qad. sanskritcha – “nurlangan”) buddaviylik ta'lomi asoschisi, tarixiy shaxs Sidxarta Gautama.
Argument	Dovod	Burhon	isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar.
Busury	Busuri	Busuri	Nisi Amanening falsafiy qarashlarida tabiat qo-nunlari tushunchasi
Bkhakthy	Bxakti	Bxakti	“Bxakti” so'zi sanskrit tilidan olingan bo'lib “mehr”, “sadoqat” degan ma'nolarni anglatadi. Bxakti diniy harakat sifatida avval X–XII asrlarda Hindistonning janubida, u yerdan quvg'inlikka uchraganidan so'ng esa XIV asrlardan boshlab Hindistonning shimolida keng yoyila bordi va XV–XVI asrlarda esa Hindistonning shimoli bxakti harakatining eng yirik markaziga aylandi. Ramanand va Ramanuja, Vallabhxacharya, Chaytannya, Nimbarkacharya, Xit Xarivansh kabi faylasuflar bxaktining asoschilaridir. Faylasuflarning bxaktini targ'ib qilishdan bosh maqsadlari umidsizlikka tushib qolgan hind xalqini hayotga qaytarish,

			ularning ongida so‘ngan ishonchni yana qayta uyg‘otish, keljakka, ertangi kunga ishonib yashash tuyg‘ularini mustahkamlash edi. Bxakti diniy-islohotchilik harakati hinduizm diniy fanatizmiga qarshi kurashda xuddi tasavvufdek bunyodga kelgan bo‘lsa-da, o‘sha davrda hind jamiyati hayotida bir vaqtning o‘zida hukmdor bo‘lgan bir qancha dinlarning fanatizmiga ham qarshi juda muvafaqqiyatlari ravishda kurashdi va bu yo‘lda o‘z maqsadiga erisha oldi.
Biological anthropology	Biologicheskaya antropologiya	Biologik antropologiya	Insonni biologik mavjudot sifatidagi jihatlarini bo‘rttirib o‘rganuvchi ta’limot.
Primary quality	Pervichniye kachestva	Birlamchi sifatlar	Narsalarning mohiyatiy belgilari.
Primary	Pervonachalo	Boshlang‘ich ibtido	Substansiya,birinchi ibtido, asos, negiz degan ma’nolarni anglatadi.
Vaysheshics	Vaysheyshiki	Vayshiyalar	Hinduiylikda dehqonlar va hunarmandlar varnasi, tabaqasi.
Vakhdat al-vujud	Vaxdat al-vujud	Vahdat ul-vujud	tasavvuf ta’limotining yetakchi g‘oyasi, xudo va olam birligi.
The Vedas	Vedi	Vedalar	Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta’lim beruvchi birinchi manbalar.
Vedkhanta	Vedanta	Vedanta	vedalar oxiri degan ma’noni anglatuvchi qadimgi hind falsafiy mifiklaridan biridir.
Wajib al-wujud Primary cause	Vajib al-vujud	Vojib ul-vujud	arab-musulmon falsafasida borliqning birinchi sababi, ya’ni bor bo‘lishi shart bo‘lgan borliq – xudodir.
Voluntarism	Volyuntarizm	Volyuntarizm	(lot. Voluntas – iroda) – iroda borliqning eng oliy ko‘rinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda V.da tarixiy jarayonlarning ob’ektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan o‘zboshimchalik bilan o‘z hohish–irodasini yuqori qo‘yuvchi faoliyatdir.
The doctrine of Gandhism	Ucheniye gandiizma	Gandiychilik ta’limoti	M. Gandiy (1869–1948) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta’limot. Gandiychilik hinduiylik, jaynizm,

			insonparvarlik va kuch ishlatmaslik g‘oyalariga asoslangan.
Hedonism	Gedonizm	Gedonizm –	Lazzatlanish, huzurlanish.
The hylozoism	Gilozoizm	Gilozoizm	Hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.
Geocentric teaching	Geotsentrizm	Geotsentrizm	Er - Olamning markazi, degan ta’limot.
Humanism	Gumanizm	Gumanizm	Insonning dunyodagi o’rni, mohiyati va vazifasi, borlig‘ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.
Taosism	Daosizm	Daosizm	qadimgi Xitoydagi falsafiy ta’limot. D. Chjango davrida ("Urushayotgan davlatlar", mil.av. 6-5 asrlar) vujudga kelgan. D.ning asoschisi Lao-szi (mil.ol. 579–499 yillar) hisoblanadi. Lao szining asosiy g‘oyalari "Dao-de-szin" asarida bayon qilingan. Uning fikricha, barcha narsalar faqatgina, "dao"ga mos holda vujudga keladi va o‘zgaradi, shuningdek u kishilarni tabiat bilan uyg‘unlikda, tabiiy hayot kechirishga chaqiradi.
Deism	Deizm	Deizm	(lot. deus – xudo) xudoning, olamning shaksiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot. D. atamasi birinchi marotaba 1564 yilda paydo bo‘ldi.
Determinism	Determinizm	Determinizm	Zaruriy shartlanganlik tamoyili.
Drakhms	Draxmi	Draxmalar	buddaviylikka ko‘ra, “o‘zining belgilariiga ega bo‘lgan zarrachalar” yoki “unsurlar” .
Deduction	Deduksiya	Deduksiya	Umumiyyidan xususiyga borish.
Deductive method	Deduktivniy metod	Deduktiv metod	Umumiyl bilimdan xususiy bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi deduktiv metodni ilgari suradi.
Dialectics	Dialektika	Dialektika	Raqib bilan bahs-munozara yurita olish san’ati.
Wisdom	Mudrost	Donolik	Yaxshi fikr, yaxshi so’z, yaxshi amal birligi.
Dualism	Dualizm	Dualizm	Nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud.

Jaynism	Djaynizm	Jaynizm	miloddan avvalgi bir minginchi yilning o'rta-larida vujudga kelgan ta'limot. Mazkur ta'limotning asoschisi Vardxamana bo'lib, qalandarona hayot kechirgan. Bu ta'limotning asosida materiya va jon yotadi. Jaynistlarning ko'rsatilishicha, insonning asosiy maqsadi tashqi olamning hukmronligidan qutilish va o'z kamoliga erishishdir. Inson tabiatini ham moddiy, ham ruhiyidir. Jon bir vaqtning o'zida nafis jon (Jiva) va dag'al materiya (ajiva)ning birligidan iborat.
Jnana	Djnana	Jnana	Ramakrishna ta'limotida bilish yo'li.
Necessity	Neobxodimost	Zarurat	Olamdagagi hamma narsa belgili asosda paydo bo'ladi, obektiv zaruratdan paydo bo'ladi.
Social treaty	Obshestvenniy dogovor	Ijtimoiy kelishuv	Jamiyatni shartnomasi asosida paydo bo'lganligi haqidagi ta'limot.
I	I	I	xitoy falsafasiga ko'ra, halol ijrochilik tushunchasi.
Dual wisdom	Dvoynaya mudrost	Ikki donishmandlik	Nosir Xisrov fikricha, bu qadimgi yunon falsafasi (yunon donishmandligi) va qarmatiylik ilohiyotidir.
Induction	Induksiya	Induksiya	bo'lakdan butunga tomon hukm yuritish.
In and yan	In i yan	In va yan	xitoy falsafasiga ko'ra, borliqdagi o'zgarish va rivojlanishlarning sababi bo'lgan azaliy qarama-qarshi ibtidolar.
Social justice	Sotsialnoye spravedlivost	Ijtimoiy adolat	Jamiyatdagi adolat shakli.
Dual truth	Dvoynaya istina	Ikki haqiqat	Dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.
Secondary quality	Vtorichniye kachestva	Ikkilamchi sifatlar	Narsalarning tashqi sifatiy belgilari.
Early Christianity	Rannaya xristianstva	Ilk xristianlik	Xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.
Inductive method	Induktivniy metod	Induktiv metod	Tajriba orqali olingan materiallarni miyada qayta ishslash usulidir.
Human existence	Chelovecheskoye bitiye	Inson borlig'i	Inson borlig'ini "ekzistensiya" deb atadilar.
Human gear, Man-mechanism	Chelovek-mexanizm	Inson-mexanizm	Inson mexanika qoidalariga bo'ysinuvchi mavjudot.
Human	Filosofiya cheloveka	Inson falsafasi	Inson ma'naviy hayotining ichki

philosophy			qonuniyatlarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma’nosи, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning o’ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobjiy tomonga yo’naltiruvchi ta’limot.
Irrationalism	Irratsionalizm	Irratsionallik	Obektiiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», subekt ongingin hodisalarini tahlil qilishga o’tdilar.
Jewel	Dragotsennost	Javhar	arabcha so‘z bo‘lib, Sharq falsafasida olamning birlamchi sababi, moddiy yoki ruhiy asosi, degan ma’noda keng qo’llanilgan.
Dialectic	Dialekticheskiy	Jadal	dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo‘linuvchi savol-javob hukmlari kabilar.
Jen	Jen	Jen	Qadimgi Xitoy falsafasidagi insoniylik tushunchasi.
Kali	Kali	Kali	hinduiylikda hudoning yaratuvchilik, saqlovchilik yoki yemiruvchilik faol holatidagi nomi.
Caste	Kastantsvo	Kastachilik	Hinduiylikda insonlarning qat’iy tabaqalarga, kastalarga bo‘linishi.
Ki	Ki	Ki	Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasida tabiat va inson paydo bo‘lishining moddiyuncha ibtidosi
Kalam teaching	Ucheniye kalama	Kalom ilmi	o‘rtta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o‘rganish, islam aqidalariga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida vujudga kelgan maxsus bilimlar tizimi.
kwankhakpha	Kvanxakpxa	Kvanxakpxa	o‘rtta asrlarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo‘nalishlaridan birining nomi.
Kirin	Kirin	Kirin	(“ki” - erkak, “rin” – “ayol”) qadimgi koreys mifologiyasiga ko‘ra, o‘zida dunyo paydo bo‘lishining dastlabki besh elementilarini mujassamlashtirgan afsonaviy hayvon.

Kodo	Kodo	Kodo	“Yaponizm” mafkurasida “Imperator yo‘li” tamoyilining nomlanishi.
Cosmic mind	Kosmicheskiy razum	Koinotiy idrok	Pravas Chaudxuri falsafiy ta’limotidaijodiy yaratuvchilik vazifasiga ega ibtido.
Kun-tsi	Konfusiy i Konfusianstvo	Konfusiy va konfusiychilik	<p>milodgacha bo‘lgan VI–V asrlarda qadimgi Xitoyda yuzaga kelgan falsafiy oqim. Konfusiy (Kun szi, melodgacha 551 – 479 y.lar) – mazkur ta’limotning asoschisi bo‘lib, u hozirgi Shandun viloyati hududida Lu xonligi davrida tug‘ildi. Konfusiylar bu vaqtarda deyarli kambag‘allashgan eski zodagonlar oilasiga mansub edi.</p> <p>K. asoschisining qarashlari uning izdoshlari tomonidan yozilgan "Lun yuy" ("Suhbatlar va mulohazalar") nomli falsafiy kitobda bayon etilgan. K.lar ta’limotida "chjun" (podshohga sadoqat), "i" (burchga sadoqat), "syao" (o‘g‘illarcha ehtirom) va b. g‘oyalarni ifoda etuvchi, "jen" (insonparvarlik) qarashlari sistemasi markaziy o‘rinni egallaydi. Uning asosida ushbu hislatlarni o‘ziga singdirgan "szyun – szi" (olijanob kishilar) haqidagi g‘oya turadi. Kishilarни "szyun – szi" (olijanoblar) va "syao – jen" (past tabaqalar)ga ajratish shundan kelib chiqqan. Unga ko‘ra, boshqaruv birinchilar tomonidan amalga oshirilishi, keyingilar esa faqat itoat etishlari zarur bo‘lgan.</p>
Cosmopolitanism	Kosmopolitizm	Kosmopolitizm	<p>vatansizlik g‘oyasini ilgari suruvchi falsafiy ta’limot. Ushbu ta’limot butun yer sayyorasinigina vatan sifatida tan oladi.</p>
Kshetry	Kshatri	Kshatriylar	Hinduiylik kastachiligidagi harbiylar var-nasi, tabaqasi.
Kojiky	Kodziki	Kodziki	Yaponiyadagi qadimgi kishilarning qilmishlari haqidagi bitiklar.
Li	Li	Li	xitoy falsafasiga ko‘ra, ruhiy olam, ruhiy substansiY.

Legists	Legisti	Legistlar	miloddan oldingi IV asrda siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan legizm falsafiy oqimining tarafdarlaridir.
Matter	Materiya	Materiya	Moddiy asos.
Mayya	Mayya	Mayya	Vedantizmda real va noreal, moddiy dunyo.
Materialism	Materializm	Moddiyunchilik	(lot. Materialis – moddiy, moddiylashgan) olam moddiy, ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda, ob’ektiv tarzda mavjud, materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materianing xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin, deb qarovchi falsafiy oqim.
Ideology	Ideologiya	Mafkura	(arab. «mafakura» – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar sistemasi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalalar majmui.
Administrative philosophy	Adminstrativniy filosofiya	Ma’muriyat falsafasi	Svami Ranganatxananda falsafiy qarashlarida jamiyat rivojiga turli darajadagi ma’muriyat hodimlari o‘z hissalarini qo‘sishi zarurligini o‘zida ifoda etadigan ta’limot.
Moral synthetic unity	Nravstvennoye sinteticheskoye yedinstvo	Ma’naviy sintetik mushtaraklik	Svami Rangatxanandaning Hindistonda hinduizm va islom orasida tinch-totuvlik va hamkorlik munosabatlari mumkinligi va zarurligini mantiqan isbotlagan ta’limoti.
Enlightenment	Prosvesheniye	Ma’rifatparvarlik	kapitalistik munosabatlar shakllanishi davrida, madaniy-mafkuraviy va falsafiy oqlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq, yuzaga kelgan, qonuniy bosqich. M. milliy xususiyatlardan qat’iy nazar quyidagi umumiylilikka ega: demokratizm, ya’ni keng ommani madaniyat va bilim manbalaridan foydalanish uchun sharoit yaratib berish, inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga ishonish. M.

			tushunchasi birinchi bor, Fransiyada shakllanib, XVIII asrning boshlarida rivoj topa boshladi. Fransuz jamiyatida M. Volter, Sh.L.Monteske, J.Mile bilan bog‘liqdir.
Mythology	Mifologiya	Mifologiya	Afsonalar va asotirlar haqidagi ta’limot. Qadimda falsafani manbasi, materiali vazifasini o’tagan.
Nationalism	Natsionalizm	Millatchilik	milliy mahdudlik va maqtanchoqlikni targ‘ib va tashviq qilishga asoslangan, o‘z millati kuch-qudrati va salohiyatiga chuqur ishonch va o‘zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan nazariya va amaliyot
Monotheism	Monoteizm	Monoteizm	(yunon. Monos – yakka, yagona, theos – xudo) – yakkahudolikka asoslangan diniy e’tiqod.
Islamic theologists Mutakallimin	Mutakallimiti	Mutakallimlar	kalom ilmi vakillari, ularning eng mashhurlari, Abul Hasan al-Ash’ariy va Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiyidir.
Islamic theologists	Mutaziliti	Mu’taziliylar	(arabcha – ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri bo‘lib, diniy hukm va aqidalarni aql doirasida qabul qiluvchilar.
Metaphysics	Metafizika	Metafizika	Tabiatdan oldin, birinchi falsafa ma’nosida ham qo’llaniladi.
Method	Metod	Usul	Usul haqidagi ta’limot.
Modus	Modusi	Moduslar	Narsalarning sifatlari.
Monads	Monada	Monada	Birlamchi asoslar, ruhiy substansiylar.
World of substances	Mir veshey	Narsalar dunyosi	O’tkinchi, yo‘q bo’luvchi, o‘zgaruvchan dunyo.
Philosophy of theory	Teoreticheskiy filosofiya	Nazariy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko‘ra, metafizika (oliy fan), matematika (o‘rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (pastki fan) dan iborat ilmlar majmui.
Nirwana	Nirvana	Nirvana	buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, azaliy karma iplaridan xalos bo‘lish va abadiy ruhiy xotirjamlik.
Norito	Norito	Norito	Qadimgi Yaponiyadagi sintoistik e’tiqod bo‘lib, u duo ifodalarini o‘qish, qurbanliklar (guruch, sabzavot, baliq) keltirish bilan

			bog'liqdir.
Prophecy	Prorochestvo	Nubuvvat	payg'ambarlik, ilohiy xabar – vahiy orqali Alloh yer yuziga o‘z elchisini yuborib, insonlarni zalolatdan qutqarishi.
Relativity	Otnositelnost	Nisbiylik	Hamma narsa o’zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukunat esa vaqtinchalik, nisbiydir.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik, ellin davrida rivojlangan oqim.
Acsidensy	Aksidensiya	Oraz	aksidensiya, narsa va hodisalarning muhim bo‘limgan, tasodifiy, o‘zgaruvchan, ahamiyatsiz xossasini bildiradi.
Consciousness	Soznatelnost	Onglilik	Onglilik bu hodisalarning yuzaki qismidir. Bizning butun tashqi, ichki taassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruhiy holatlar bilan bog'liqdir.
Progress	Progress	Progress	Taraqqiyot haqidagi ta’limot.
Pantheism	Panteizm	Panteizm	(yunon. ran – hamma, theos – xudo) – tarixan shakl–langan falsafiy ta’limot bo‘lib, u xudo bilan tabiat bir–biriga, tamoman, mos bo‘lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir–biriga qarama–qarshi qo‘yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi, deb da’vo qiladi.
Pacifism	Patsifizm	Pasifizm	hech narsaga ozor bermaslik tamoyili.
Purans	Purani	Puranlar	Hinduizmni o‘rganishning eng dastlabki manbalaridan biri bo‘lib, ular turli rasm–rusumlar va mifologik syujetlar kiritilgan asardir.
Rationalism	Ratsionalizm	Ratsionalizm	Bilishda aqlni rolini oshirib ko’rsatuvchi ta’limot.
Rationality	Ratsionalnost	Ratsionallik	Kantdan Gegelgacha bo’lgan yo’l - bu insonning tanqidiy baholovchilik qobiliyati sifatida tushunilgan oliy aqlining gegelcha «ilohiy» aql aqidasiiga o’rin bo’shatib berishi yo’lidir.
Regress	Regress	Regress	Orqaga ketish.
Renaissance	Renessans	Renessans	Uyg'onish davri.
Revolution	Revolyusiya	Inqilob	(lotin. "revolutio" – to‘ntarish, burilish) – tabiat, jamiyat yoki bilish jarayonida biron–bir narsa,

			hodisada sodir bo‘ladigan chuqur sifat o‘zgarishi va rivojlanishni ifodalaydigan tushuncha.
Sallimkhakpha	Sallimxakp-xa	Sallimxakp-xa	o‘rtalarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo‘nalishlaridan birining nomi.
Sati	Sati	Sati	Hindistonda beva qolgan ayolni erining jasadi yon-dirilayotgan gulkanda birga yondirilishi marosimi.
Satory	Satori	Satori	yaponcha so‘z bo‘lib, ichki tuyg‘u bilan tushunish, yoritilish lahzasini anglatadi.
TwaddleVerbiage	Pustosloviye	Safsata	noto‘g‘ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg‘onni isbotlashga qaratilgan sofizm, paralozimlar.
Swadeshy	Svadeshi	Svadeshi	Hindiston Milliy Kongress partiyasining ingliz mahsulotlariga boykot e’lon qilish g‘oyasi.
Swaraj	Svaraj	Svaraj	Hindiston Milliy Kongress partiyasi ilgari surgan “O‘zo‘zini boshqarish” g‘oyasi.
Sensualism	Sensualizm	Sensualizm	Bilishda sezgilarni rolini, ahamiyatini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi ta’limot.
Scepticism	Skeptitsizm	Skeptitsizm	yunoncha so‘zdan olingen bo‘lib, ko‘rib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalanyapman degan ma’nolarni bildiradi. Bu oqimning ko‘zga ko‘ringan vakillari – Pirron, Agripp, Ensidem, Sekst Empirik.
Chaos,Element	Stixiya	Stixiya	Tabiatning ongsiz harakati.
Subjectivism	Subyektivizm	Subektivizm	Bilishda inson ongini, xislarini o‘rnini ko‘tarib ko‘rsatuvchi ta’limot.
Natural right	Yestestvenniye pravo	Tabiiy huquq	Insonni tug‘ilgandan yashashga bo‘lgan huquqlari.
Natural equality	Yestestvennoye ravenstvo	Tabiiy tenglik	Insonni tug‘ilgandan hamma insonlar teng degan ta’limot.
Focusingattention, treatment	Sosredotocheniy e vnimaniya, obrasheniye	Tavajjuh	butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo‘yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.
Tanasukh	Tanosux	Tanosux	inson vafot etgandan so‘ng, ruhning bir tanadan boshqa tanaga ko‘chib o‘tishi haqidagi nazariY.
Tapasya	Tapasya	Tapasya	Gandiy va jaynizm ta’limotida

			azob chekish va o‘g‘-rilikdan o‘zini tiyish tamoyili.
Theism	Teizm	Teizm	(yunon. theos – xudo) – diniy-falsafiy ta’limot bo‘lib, olamni, xudo tomonidan yaratilganini tan oladi.
The Tendai Sect	Sekta Tenday	Tenday mazhabi	o‘rta asrlarda Xitoyda gullab-yashnagan budda-viylikning “Bir lahzada uch ming dunyo”, ya’ni kosmologik nazariya qoidasiga amal qiluvchi mazhabi.
Tolerance	Tolerantnost	Tolerantlik	(lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat) – o‘zgalar–ning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, histuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag‘rikenglik.
Totemism	Totemizm	Totemizm	ibridoiy tasavvur shakllaridan biri bo‘lib, borliqdagi o‘zgarishlarni va rivojlanishlarni tushunishda hayvonlarning g‘ayritabiiy ta’siriga ishonish.
It	“Ono”	“U”	Tushunchasiga esa onglilikni tashkil etuvchi ongsizlik kiradi.
The Upanishads	Upanishadi	Upanishadlar	(haqiqatni bilish maqsadida o‘qituvchi oldida o‘tirish) Vedalarning to‘rttasidan biriga an’naviy tarzda qo‘shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi.
The Renaissance	Epoxa vozrojdeniya	Uyg‘onish davri	Yangi davr arafasida o‘ziga xos qadriyatlarga ega bo‘lgan g‘oyaviy va madaniy rivojlanishni o‘z ichiga olgan tarixiy jarayondir.
Universal	Universalii	Universaliylar	Umumiy tushunchalar haqidagi ta’limot.
Fatalistic determinism	Fatalisticheskiy determinizm	Fatalistik determinizm	Taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo‘ladi, degan ta’limot.
Fazza	Fatszya	Faszya	siyosiy arbob Shen Buxay(er.ol.400-337 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy oqim. Legizm falsafiy oqimi jamiyatni boshqarish siyosatida zo‘ravonlikka (totalitar) asoslangan umumiy koidani joriy qilishni, byurokratiya ustidan nazorat o‘rnatishni, jamiyatda xalqqa nisbatan tub va keskin choralar

			kurishni tavsiya kildilar Legizm ma'rifatli bo'lgandan ko'ra, xalqni jaholatda tutishni afzal ko'radi. Legizm asoslarini Xan Fey-szin, Shan Yan kabi arboblar ishlab chiqishgan
The science of the laws of Sharia	Nauka o zakonax shariata	Fiqh	islom huquqshunosligi bo'lib, bu soha rivojida Qaffol Shoshiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Ahmad al-Kosoniy kabilarning ulushi katta bo'lgan.
The city of virtues	Gorod dobrodeteley	Fozil shahar	Forobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ideal jamiyat.
The phenomenon	Fenomen	Fenomen	Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va "mohiyat" tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.
Charisma	Xarizma	Xarizma	insonning o'ta qobiliyatli va o'ziga xosligi. Sotsiologiya faniga E.Trelch tomonidan kiritilgan bo'lib, u M.Veber tomonidan uning xukmronlikning ideal tiplari konsepsiyasida tahlil qilingan
Memory	Vospominaniye	Xotirlash	Haqiqiy dunyodagi hayotini eslash.
Rhetoric	Ritorika	Xitoba	ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar.
Khodjagon	Xodjagon	Xojagon	yassaviya va naqshbandiya oqimlaridan iborat bo'lgan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri.
Hastasoft	Xuastuanift	Xuastuanift	moniylikning tavba namozi.
Qi	Si	Si	xitoy falsafasiga ko'ra moddiy ashyolar.
Civilization	Sivilizatsiya	Tamaddun	(lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma'noda ishlatgan edilar.

Cyclic movement	Siklicheskoye dvijeniye	Siklik harakat	Olamda turli davrlar, bosqichlarning navbatma-navbat o'rin almashishi, aylanma harakati.
Scandalli	Chandalli	Chandallar	hind kastachiligidagi to'rtta kastaga kirmaydigan eng quyi tabaqa vakillari.
Chistia	Chishtiya	Chishtiya	o'rta asrlarda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf tariqati oqimi.
Charvaka	Chorvaki	Chorvaklar	bu ta'limotga ko'ra, olamning asosida to'rt unsur – suv, olov, havo va tuproq yotadi.
Shahid who died for the faith	Shaxid, pogibshiy za veru	Shahid	Islom e'tiqodida insonning din uchun kurashda halok bo'lishi, jon berishi.
Form	Forma	Shakl	Borliq ma'nosи, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.
Verse	Stix	She'r	she'riy hukmlar. She'r yozish san'ati, uning vazifalari.
Chauvinism	Shovinizm	Shovinizm	boshqa millatlarni mensi-maslikni va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyavynazariy qarashlar sistemasi va amaliyoti. Shovinizm - millatchilikning eng xunuk ko'rinishi. Shovinizm atamasi fransuz yozuvchilari aka-uka I. va T.Konyarning «Uch rangli kokarda» nomli komediyasining qahramonlaridan biri, o'zining tajovuzkor millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola Shoven nomi bilan bog'liq holda XIX a.ning birinchi yarmida paydo bo'lgan.
Sudras	Shudri	Shudralar	Hinduiylikda kastalarning eng quyi varnasi, tabaqasi, ulardan hazar qilingan.
Evolution	Evolyusiya	Evolyusiya	(lot. yevolutio – ochilish, yozilish, takomillashish) – tadrijiy rivojlanish. Umumilmiy va falsafiy ta'limot hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va ruhiy-ma'naviy, rivojlanish konsepsiolarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiladi. E. tushunchasi keng ma'noda, rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlataladi.
Emanation	Emanatsiya	Emanatsiya	tajalliy etish jarayoni, ya'ni o'zidan nur taratish oqibatida

			yangi hodisani vujudga keltirish.
Ethnic culture	Etnokultura	Etnomadaniyat	millatga tegishli bo‘lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an’ana, qadriyatlari, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma’naviy merosi, tafakkuri, ongi, g‘oyaviy hamda axloqiy jihatdan o‘ziga xosligini ifodalovchi ma’naviy boyligidir.
Ethnicity	Etnos	Etnos	(yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) etnik birlik, ijtimoiy tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan odamlar ijtimoiy guruhining bir turi. E. urug‘, qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo‘ldi. Etnos tushunchasi 1921-1923 y.da S.M.Shirokogorov tomonidan chuqur tahlil qilingan. U e.ni insoniyat lokal guruhi mavjudligining asosiy shakli deb hisoblagan. Uning asosiy belgilari deb esa, - «kelib chiqish, urf-odatlar, til va turmush tarzi birligi» deb bilgan.
Ethnocentrism	Etnotsentrizm	Etnotsentrizm	(grek. –guruh, xalq va lot. centrum - markaz)- o‘z xalqi xulqi, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo‘lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha.
Giron	Yugiron	Yugiron	XV-XVI asrlarda Koreyada moddiy asos – “ki”ning birlamchiligin tan olgan materialistik maktab.
Neoplatonism	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik	eramizning boshlarida vujudga kelgan, Plotin, Prokl, Porfiriy kabi faylasuflar tomonidan Aflatun g‘oyalarini jonlantirish va rivojlantirishga asoslangan ta’limot.
The inevitability of fate	Neizbejnost iz sudbi	Qazo va qadar	islom diniga ko‘ra, taqdiri azalga so‘zsiz ishonish.
Sect Kariatidy	Karmatidi	Qarmatiylar	Ismoiliylar falsafiy oqimining bir shahobchasi.
Comparison	Sravneniye	Qiyos	deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakllari, qoidalari kabi masalalar.
Judgment day	Sudniy den	Qoim	ismoiliylar falsafasiga ko‘ra, Qiyomat kuni Muhammad ibn

			Ismoilni Imom Mahdiy suratida qaytishi.
substance	substansiya	Hayulo	birlamchi sabab, moddiy asos, substansiY.
Ideological vacuum	Ideyniy vakuum	G‘oyaviy bo‘shliq	jamiyat hayotida mafkurasizlik, maq–sadsizlik va boshboshdoqlilikning namoyon bo‘lishi.
The world of ideas	Mir idey	G‘oyalar dunyosi	Haqiqiy, abadiy, o’zgarmas dunyo.
Harijana	Xaridjani	Harijanlar	hind kastachilik tizimidagi “qo‘l tekizib bo‘lmas”lar tabaqasi, ular eng iflos mehnat – ko‘chalarni supurish, axlatni tozalash kabi ishlarni qilishlari kerak.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muosasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.
20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688- modda.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

1. Henry Corbin. History of Islamic philosophy. – New York. 2010.
2. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
3. Peter Adamson. Philosophy in the Islamic World. –New York: Oxford Press, 2015.
4. Po‘latova D.A Qodirov M.Q., Sulaymonov J.B. Sharq falsafasi va

madaniyati tarixi. O‘quv qo‘llanma.1-qism. –T.: Fan va texnologiya, 2018.

5. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

6. Ajdodlarimiz ma’naviy merosidan. – T.: Fan, 2014.

7. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

8. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

9. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

10. Istorya Vostoka. V 6-tomax. –M.: Vostochnaya literatura RAN. – 2002-2008.

11. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

12. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati.–T.: O‘zbekiston, 2014.

13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

14. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqining falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. – T.: TDSHI, 2010.

15. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

16. Nuriddinov M.N., Po‘latova D.A., Fayzixodjayev D.E.va boshq. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari (VIII-XVIII asrlar) O‘quv qo‘llanma. – T. : TDSHI, 2014.

17. Po‘latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2013.

18. Tompson M. Vostochnaya filosofiY. – M.: Grand, 2001.

19. O‘zbekiston falsafasi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: NOSHIR, 2013.

#### **IV. Internet saytlar**

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy- metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyonET

5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
- 6.[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
- 7.[www.nimfogo.uz](http://www.nimfogo.uz)
- 8.[www.gov.uz](http://www.gov.uz)
- 9.<http://press.natlib.uz>